



Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'rifat

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2025-yil 8-yanvar chorshanba № 1(9534)

Xalq ziyolilari gazetasi

O'ylanib qolaman, nega ilm-fanga oid postlarni atigi 15-20 ming odam o'qiydi? Biror mashhur qo'shiqchi yoki aktyorning hayoti, nima yeb ichishi esa millionlab insonga qiziq.

Kelin salom, to'ylarni kimo'zarga qilamiz-u, ammo kitob qimmat deymiz. Aksariyat xonadonlarda kitob umuman o'qilmaydi.

Ayrim ziyolilarimiz ham birinchi navbatda bolasiga ilm-fanni emas, chetga borib ishlasa qiynalmasin deb til o'rgatyapti...

Fayoza RO'ZIYEVA

O'qituvchilik kasbidan noliyverib qadrini tushirib yubormayapmizmi kan aslida?! Axir har bir kasbning ham o'ziga yarasha mashaqqati bor. Uni qiyin yo'l bilan yoki oson yo'l bilan olib borish insonning o'ziga bog'liq. Har qanday sohada ham bilimli mutaxassis hurmat va qadr topaveradi.

Sabohat PO'LATOVA

Shohsanam MAHMUDOVA:

Xalqaro MELQO: O'zbekistonda maktabgacha ta'lim sifati qanday?



2-3-betlar

“Ma'rifat” yulduzlari – 2024



Sayyora
Yorqulova



Hilola
Mamajonova



Dostonbek
Sharipov

8-9-betlar

Maktabgacha ta'lim

Kichik yoshdagi bolalar rivojlanishi jarayonini o'rganish, baholash nafaqat pedagoglarga bolalarning turli ehtiyojlarini qondirishni ta'minlash, balki maktabgacha ta'lim dasturlari samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim sifatini baholash pedagoglarning bolalar bilan o'zaro munosabati va umumiy ta'lim muhiti kabi omillarni o'z ichiga oladi. Bu orqali yaxshilash kerak bo'lgan yo'nalishlarni aniqlash, resurslarni taqsimlashga rahbarlik qilish va dalillarga asoslangan amaliyotdan foydalanish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi **“2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”**gi Farmoni bilan tasdiqlangan Davlat dasturining 155-bandida “Erta yoshdagi bolalar ta'limi sifati va natijalarini baholash bo'yicha xalqaro MELQO (Measuring Early Learning Quality and Outcomes) baholash tizimi asosida “Bolalarning erta yoshdan rivojlanishi va maktabgacha ta'lim sifatini baholashning milliy tizimi”ni joriy etish vazifasi belgilab berildi.

Ushbu Farmonda keltirilgan erta yoshdagi bolalar ta'lim sifati va natijalarini baholash bo'yicha xalqaro MELQO baholash vositasi mamlakat darajasida 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan (*boshlang'ich ta'limga o'tishdan oldin*) bolalarning rivojlanishi va ta'lim olishi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishga mo'ljallangan. U ko'plab davlatlarda sinovdan o'tgan va milliy baholash tizimlarini rivojlantirish uchun boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qiladi. 2015-yilda Braziliya, Kolumbiya, Senegal, Misr, Efiopiya (*milliy baholash tizimiga kiritilgan*), Keniya, Uganda, Tanzaniya, Mozambik, Namibiya, Liberiya, Pokiston, Hindiston, Xitoy, Indoneziya yada baholash ishlari tashkil etilgan. Hozirgi kunda esa ushbu baholash vositasidan Shimoliy Makedoniya, Kanada, Meksika, Ekvador, Chili, Argentina, Urugvay, Avstraliya, **O'zbekiston**, Marokash, Kamerun, Zambiya, Angola, Suriya, Iordaniya davlatlari foydalanib kelmoqda.

Xalqaro MELQO baholash vositasi modullari (MODEL, MELE) bilan O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishga qo'yiladigan davlat talablari va “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi muvofiqlashtirilib, o'zbek, qoraqalpoq va rus tillariga tarjima qilindi.

2023-yilda xalqaro MELQO baholash vositasini tajriba-sinovdan o'tkazish uchun dastlab 12 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tanlab olindi: Toshkent shahardan 5 ta, Toshkent viloyatidan 5 ta hamda Qoraqalpog'iston Respublikasidan 2 ta. Shu yilning o'zida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardan tasodifiy tanlov asosida yana 100 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tanlab olinib, ta'lim-tarbiya jarayoni sifati baholandi. Unda **398 nafar** bolalar va ularning ota-onalari (99,5%), **100 nafar** direktor va pedagoglar (100%) ishtirok etishdi, shuningdek, **100 ta** (100%) davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida guruhlardagi ta'lim muhiti kuzatildi.

Qolaversa, “Bolalarning erta yoshdan rivojlanishi va maktabgacha ta'lim sifatini baholash tizimi” asosida ma'lumotlarni jamlash va ularni tahlil qilish bo'yicha trenerlarni tayyorlashga qaratilgan bir nechta seminar-trening tashkil etildi. Ularda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi mas'ul xodimlari, xalqaro maslahatchi, konsalting kompaniyasi hamda ekspertlar guruhi ishtirok etishdi.

Ikkinchi bosqich 2024-yili boshlanib, barcha hududlardan tasodifiy tanlov asosida **250 ta** davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tanlab olinib, ulardagi ta'lim-tarbiya jarayonini baholash ishlari amalga oshirildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini baholash uchun xalqaro MELQO baho-

Xalqaro MELQO:

lash tizimi vositalari MODEL(bolani bevosita kuzatish va ota-ona (uning o'rnini bosuvchi shaxs) bilan suhbatlashish orqali erta ta'lim va rivojlanishning darajasini baholaydi), MELE(guruhda ta'lim muhitini kuzatish, pedagog va maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori bilan suhbatlar orqali o'rganadi), AIM-ECD(bolani to'g'ridan-to'g'ri baholash), Teach ECE(guruhni kuzatish vositasi)lardan foydalanildi. Ushbu vositalarning qisqacha tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

uzviyligini ta'minlagan holda muvaffaqiyatli o'tishni qo'llab-quvvatlashlarini ma'lum qilgan.

Shu bilan birga, pedagoglar bolalar bilan muloqot qilishda intizom va tartibni saqlaydi, ortiqcha salbiylik ko'rsatmasdan, doimiy tabassum qilib, ularni og'zaki qo'llab-quvvatlaydi, yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishda qiynalayotgan bolalarga sabr-toqat bilan o'rgatadi va savollarini tinglab, tushuntirishlar olib borib, to'liq javob beradilar. Shuningdek, 60 dan ortiq pedagog

1-jadval

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini baholashda qo'llanilgan vositalarning tavsifi

Vositalar nomi	Ishtirokchilar	Vositalarining tavsifi
AIM-ECD vositasi tarbiyalanuvchini to'g'ridan-to'g'ri baholash	Tarbiyalanuvchilar	Tarbiyalanuvchilarni to'g'ridan-to'g'ri o'yin faoliyatiga jalb qilish orqali erta rivojlanish va erta o'rganish haqida ma'lumot beradi
MEQLO MODEL vositasi ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxs–qonuniy vasiylar bilan suhbat	Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxs – qonuniy vasiylar	Bolaning rivojlanishi va uy muhitini tushunish uchun bolaning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxs-qonuniy vasiylar bilan suhbat
MELQO MELE vositasi direktor bilan suhbat	Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori	Maktabgacha ta'lim tashkilotining infratuzilmasi va ishini tashkil etishni tushunish uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori bilan suhbat
MELQO MELE vositasi pedagog bilan suhbat	Pedagog	Pedagoglarning malakasi, tayyorgarligi va motivatsiyasini tushunish uchun bola ta'lim-tarbiya olayotgan guruh pedagogi bilan suhbat
Teach ECE vositasi guruhini kuzatish	Guruh	O'zaro ta'sirni kuzatish orqali jarayonning sifatini tushunish uchun ta'lim jarayonida guruhni kuzatish

MELQO modullari ochiq manba va hammabop hisoblanadi, ular bolalarning rivojlanishi hamda o'quv muhiti sifatini ko'rib chiqishning yanada yaxlit tasvirini yaratadi. Milliy darajada moslashtirilishi mumkin bo'lgan dalillarga asoslangan baholash tizimini taqdim etadi.

Xalqaro MELQO baholash tizimi vositalari asosida hozirgi kunga qadar O'zbekistonda jami 350 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonining sifati baholangan.

“Bolalarni rivojlantirish va ularga ta'lim berish” (MODEL) sohasidagi tadqiqotning dastlabki natijalari shuni ko'rsatadiki, tadqiqotda ishtirok etgan 398 nafar bolaning 70% dan ortig'i o'z his-tuyg'ularini tengdoshlari va kattalar bilan ijtimoiy munosabatlarda, shuningdek, mustaqil ishlarida nazorat qilish qobiliyatiga ega. Bolalarning 80% dan ortig'i matematikadan oldingi akademik ko'nikmalar yo'nalishi bo'yicha (*og'zaki hisoblash, to'plamlarni ishlab chiqarish, yodda qo'shish, raqamlarni aniqlash, atrofini his qilish*) 6-7 yoshdagi bolalarni rivojlantirish bo'yicha xalqaro standartga muvofiq ko'nikmalarga ega. Ona tili (savodxonlik) rivojlanishiga ko'ra, bolalarning 70% dan ortig'i og'zaki nutq qobiliyatiga ega, so'zlarni taniydi, jummalarga birlashtiradi, ma'nosini tushunadi, alifboning bosma harflarini biladi.

MELE moduli bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot asosida direktorlar va pedagoglar bilan o'tkazilgan suhbatlar 100 ta DMTT ichida 90 dan ortig'ida 6-7 yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish dasturida asosiy e'tibor bolalar bilan o'yin orqali tajribalar o'tkazish va buning uchun imkoniyatlar yaratishga qaratilganini ko'rsatdi. Guruhlarda yetarli darajada didaktik o'yinlar va o'yinchoqlar borligi, ular bilan o'ynash maydonchalari mavjudligi aniqlangan.

100 nafar pedagogdan 80 nafardan ortig'i o'z amaliyotida bolalarga ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda individual va umumiy guruhlar yondashuvidan foydalanishi, shuningdek, boshlang'ich ta'limga o'tishning

ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvdan foydalanmaydi.

Atrof-muhit va ta'lim muhiti nuqtayi nazaridan 100 ta DMTTdan 70 dan ortig'i bino, guruh va hudud xavfsizligi standartlariga javob beradi, shu jumladan, toza suv va hojatxonalardan foydalanish imkoniyati mavjud, shuningdek, har bir bola uchun belgilangan maydon yetarli bo'lib, me'yorlar talabiga to'liq javob beradi. Tadqiqotning dastlabki natijalariga ko'ra, 100 nafar direktorning barchasi oliy ma'lumotga ega, pedagoglarning 5 foizi oliy ma'lumotli bo'lib, qolgan 95% foizi o'rta maxsus ma'lumotga ega.

MELQO xalqaro vositasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim sifati qoniqarli darajada deb topildi. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim-tarbiya jarayoniga shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni joriy etish bo'yicha muammolar aniqlanib, ushbu yo'nalishda pedagoglarning salohiyatini oshirish zarur ekanligi ma'lum bo'ldi.

Jarayonda quyidagi toifalardagi ishtirokchilar qatnashdilar: har bir davlat maktabgacha ta'lim tashkilotidan 4 nafar tarbiyalanuvchilarning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar (1 000 nafar ota-ona), 4 nafar tarbiyalanuvchi (1 000 nafar tarbiyalanuvchi), 250 nafar direktor, 250 nafar tarbiyachilar. Ma'lumotlarni yig'ish maxsus ishlab chiqilgan elektron dastur asosida planshetlar yordamida amalga oshirildi.


Bolalarning erta ta'lim olishi va rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar ikki usulda baholangan. Birinchi usulda ota-onalar bilan MELQO MODEL moduli intervyusi yordamida baholandi, bunda ota-onalar yoki vasiylardan bolalar nima qila olishlari va nima qila olmasliklari so'ralgan. Ikkinchi usulda bolalarning ko'nikmalari to'g'ridan-to'g'ri AIM-ECD yordamida baholandi.

AIM-ECD baholash natijalari, ota-onalar hisoboti natijalariga mos keldi. Tayyorlov guruhlaridagi bolalar yil oxirida yuqori darajadagi ko'nikmalarni namoyon etdilar. **“Hisobni erta o'rganish”** bo'limida o'rtacha ball **94%** ni tashkil etdi (1-rasm), ya'ni deyarli barcha

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim sifati qanday?


bolalar savollarga to'g'ri javob berishdi. Boshqa sohalar unchalik yuqori natijalarni ko'rsatmadi. Eng zaif soha **erta savodxonlik** bo'lib chiqdi.

1-rasm. To'g'ridan to'g'ri AIM-ECD bahosi
Bo'limlar bo'yicha umumiy va o'rtacha ball




Har bir sohada 80% dan ortiq to'g'ri javob to'plagan bolalarni "yuqori" ball, 60% dan kam ball to'plagan bolalar "o'rta" va 60% dan kam ball to'plagan bolalarni "past" ball to'plagan deb tasniflangan. Natijalar maktabgacha ta'lim dasturida erta savodxonlikni takomillashtirish lozimligini ko'rsatadi.

2-rasm. AIM-ECD bo'limlari bo'yicha ballarning taqsimlanishi




Hududlar bo'yicha AIM-ECD baholash 3-rasmda ko'rsatilgan. **Buxoro, Andijon va Toshkent**da AIM-ECD to'g'ridan-to'g'ri so'rov bo'yicha eng yuqori(90% dan ortiq) ball to'plangan. **Xorazm, Surxondaryo va Sirdaryo** viloyatlarining o'rtacha ko'rsatkichlari 20 foizga past.

3-rasm. Hududlar bo'yicha AIM-ECD dasturiga oid umumiy ball




Hududlar bo'yicha eng katta farqlar "Erta savodxonlik" va "Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohalarida kuzatildi. Erta savodxonlik bo'yicha **Toshkent, Buxoro va Jizzax** viloyatlaridagi bolalar 85%, ya'ni **Surxondaryo** viloyatidagi bolalarga qaraganda deyarli 25 foiz yuqori natija ko'rsatdi. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasida **Farg'ona** viloyatida bolalar eng ko'p ball (94%) to'plagan.

4-rasm. Hududlar kesimida AIM-ECD DT bo'limlari bo'yicha ballar



Bolalarning erta ta'lim va rivojlanishidagi natijalari qanday?
Topgan bolalar foizi...



Kutilganidek, yosh ulg'aygan sari ko'rsatkichlar o'sib borad



Ota-onalar ma'lumotlari bo'yicha ham, to'g'ridan to'g'ri baholash natijalari bo'yicha ham O'zbekistondagi bolalar turli sohalarida yuqori darajadagi rivojlanishni namoyish etdilar.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim
guruhlarida sifat

Maktabgacha ta'lim sifati odatda erta yoshdagi bolalarning ta'lim olishi va rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydigan **tarkibiy** va **protsessual** komponentlarga bo'linadi. Tarkibiy sifat maktabgacha ta'lim tashkilotining jismoniy infratuzilmasi, pedagoglar va bolalar uchun mavjud bo'lgan resurslar, shuningdek, pedagoglarning tayyorgarlik darajasi va tajribasini o'z ichiga oladi.

Tahlillarga ko'ra, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarkibiy sifati ancha yuqori. Pedagoglarning 87 foizi oliy, o'rta maxsus ma'lumot, 90 foizi esa maktabgacha ta'lim to'g'risidagi diplomga ega. Biroq pedagoglarning atigi 58 foizi so'nggi 12 oy davomida ishdan ajralmagan holda malaka oshirgan, bu esa malaka oshirishni yanada izchillik bilan davom ettirish zarurligini ko'rsatadi. Pedagoglar o'rtasida ishdan qoniqish darajasi ham ancha yuqori: so'rovda qatnashgan pedagoglarning 97 foizi o'z ishdan mamnun ekanligi, 95 foizi yetarli darajada tayyorgarlikka egaligi, 96 foizi esa rahbar tomonidan qo'llab-quvvatlanishini his qilishlarini ta'kidlaganlar.


Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining umumiy infratuzilmasi ham yaxshi rivojlangan. Aksariyat guruhlarda yetarli miqdordagi o'quv materiallari mavjud – guruhlarining 90 foizdan ortig'i yozuv ashyolari, badiiy adabiyotlar, o'yin materiallari bilan ta'minlangan. Takomillashtirishni talab qiladigan potensial sohalaridan biri ko'p tilli hikoyalar to'plamidir, chunki 12 foiz guruhda ta'lim tili bo'yicha hikoyalar to'plami mavjud emas.

Protsessual sifat guruhda vaqtdan foydalanish, pedagogik yondashuvlar sifati, bolalar va kattalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va guruhdagi muhit bilan bog'liq.

Teach ECE asosida baholangan guruhlardagi protsessual sifat pedagogning ta'lim-tarbiya faoliyatiga jalb etilganligi va bolalarning ishtiroki yuqori ekanligini ko'rsatdi. Kuzatilgan 250 ta guruhdan 232 tasi Teach ECE umumiy ko'rsatkichi bo'yicha "yaxshi"dan "juda yaxshi" oraliqida baholandi. Teach ECEning turli sohalarida (topshiriqni bajarish vaqti, guruhdagi madani-

yat, pedagog rahbarligida ta'lim-tarbiya berish va ijtimoiy-hissiy ko'nikmalar) ham butun respublika bo'ylab yuqori natijalarni ko'rsatdi.


Maktabgacha ta'limda jarayon sifati bilan qanday omillar bog'liq?



Muhim omillar ko'k rangda, ahamiyatsiz omillar esa kulrang rangda.

Umuman olganda, ushbu baho O'zbekistonda maktabgacha ta'limning holati haqida ijobiy tasavvur beradi. Guruhlardagi jismoniy muhit yuqori sifatli, zarur o'quv materiallari bilan ta'minlangan, xavfsizlik va salomatlik bilan bog'liq bo'lgan muammolar kam. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari yuqori ta'lim darajasiga ega va o'z guruhlarida sifatli mashg'ulotlar o'tkazishga motivatsiyalangan. Bolalar erta ta'limi va rivojlanishining asosiy ko'nikmalari bo'yicha natijalar yuqori. Shuningdek, mavjud ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda sifat va natijalar boshqa mamlakatlarga qaraganda yuqori. Yaqinda bir nechta mamlakatlardagi Teach ECE ma'lumotlari bo'yicha hisobotlardan birida beshta (anonim) mamlakat ma'lumotlari berildi. **O'zbekiston guruhda o'qitish sifatining barcha ko'rsatkichlari va ayniqsa, ijtimoiy-hissiy ko'nikmalar bo'yicha boshqalardan yaqqol o'zib ketgan.** Ushbu natijalar mazkur hisobotda keltirilgan ayrim xulosalarni tasdiqlaydi, ya'ni sohalar bo'yicha o'zlashtirishdagi farqlar – **O'zbekistonda bolalar savodxonlikka nisbatan hisobni (keyin matematikaga ham) erta o'rganishda nisbatan ancha ilg'or.** PISA reytingida O'zbekiston o'qish bo'yicha 80/81-o'rinni egallagan bo'lsa, matematika bo'yicha 70/81-o'rinni egalladi. Hisobotda, shuningdek, **O'zbekistondagi ota-onalar kitob o'qishni yaxshi ko'rish va farzandlarining savodxonligini rivojlantirishda yordam berishi mumkinligi ta'kidlangan.**

O'zbekiston so'nggi Teach ECE tadqiqotiga kiritilgan boshqa mamlakatlarga qaraganda yuqori o'rtacha jarayon sifatiga ega



Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda xalqaro MELQO baholash tizimi asosida ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini baholash tartibi ishlab chiqilmoqda. Tizim asosida ma'lumotlarni jamlash va ularni tahlil qilish bo'yicha trenerlarni tayyorlash rejalashtirilgan. Yangi ishlab chiqilishi kutilayotgan tartibga asosan 2027-yilda xalqaro MELQO baholash tizimi asosida davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayoni sifati baholanishi kutilmoqda.

Lola BERDIYEVA,
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti direktori o'rinbosari
Sirojiddin RAHMONBERDIYEV,
Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti bosh mutaxassisi



Oliy ta'lim muassasalarida

Talabalar sinf rahbarlikka qanday tayyorlanadi?

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining Tabiiy fanlar fakulteti qoshida o'ttizga yaqin to'garak tashkil qilinib, jarayonga 500 dan ortiq talaba qamrab olingan. Mashg'ulotlar talabalarning asosan darsdan tashqari bo'sh vaqtlari o'tiladi. To'garaklarning yuritilishi qat'iy nazoratga olingan.

Ma'lumki, pedagog kadrlar tayyorlanadigan OTMlarning har bir fakultetida muayyan fanning o'qitish metodikasi o'rgatiladi, ammo sinf rahbarlik o'qitilmaydi. Universitetimizda esa bu jarayon yo'lga qo'yildi – Tabiiy fanlar fakultetida “Sinf rahbari” to'garagi tashkil etilib, oyida ikki marta mashg'ulot olib borilmoqda. Ularga asosan “4+2” dasturi bo'yicha pedagogik amaliyot o'tayotgan talabalar jalb etilgan. To'garak rahbari sinf rahbari tomonidan tayyorlanadigan hujjatlarning yig'ma jildi va undagi hujjatlarni yuritish tartibini nazariy jihatdan o'rgatadi. To'garak rejasini taxminan quyidagicha tuzish mumkin:

✓ sinf rahbarlik yig'ma jildi;

✓ o'quvchilarga darslik tarqatish va o'quv yilining oxirida yig'ib maktab kutubxonachisiga topshirish tartibini asoslovchi hujjat;

✓ sinf dars jadvali va o'quvchilar haqida ma'lumotni e-maktabga joylashtirish tartibi;

✓ sinf faollarini tayinlash;

✓ sinf va ota-onalar yig'ilishi yillik rejasini tuzish va yig'ilishlarni o'tkazish, bayonnomalarni rasmiylashtirish;

✓ sinfxonada “Jonli burchak” tashkil etish;

✓ o'quvchilarning chorak davomida fanlar bo'icha o'zlashtirishi hamda harakati haqida

✓ o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosariga hisobot tayyorlash va topshirish;

✓ o'quv yili davomida o'tkaziladigan tadbirlar rejasini;

✓ o'quvchilarni qiziqishlariga ko'ra to'garaklarga jalb etish;

o'quvchilarga psixologik tavsifnoma yozish.

Talabalik davrida shu to'garak a'zosi bo'lgan bir nechta sobiq talabalarimiz maktablarda kimyo fanidan dars o'tish bilan birgalikda sinf rahbarlik ham qilib kelmoqda.

Ra'no QO'CHQOROVA,
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti

Ta'lim muassasalarida

Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab

Hokimi – kitobxon, Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mudiri – shoir bo'lgan G'ijduvon tumaniga borish asnosida ko'plab yutuqlari bilan respublikada tanilib qolgan kimyo-biologiya faniga ixtisoslashgan 60-IDUM faoliyatini o'rgandik. Bizni maktab direktori, Xalq ta'limi a'lochisi Aziza Jalolova xush kayfiyat bilan kutib oldi.

1000 dollarga yaqin oylik olayotgan o'qituvchilar

– 40 nafar o'qituvchimiz turli darajadagi sertifikatlarni qo'lga kiritishdi. Pedagoglarimizning 85 foizi toifaga ega. Qolganlari esa yoshi ulug', nafaqaga yaqinlashib qolgan ustozlar yoki endigina jamoamizga kelib qo'shilgan yosh pedagoglar, – deydi Aziza Jalolova. – Izlanishlarimiz besamar ketmadi. Prezidentimiz sovrini uchun “Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab” ko'rik-tanlovida ikki yildan buyon sovrinli o'rin olgan bo'lsak, bu yil birinchi o'rinni qo'lga kiritib, 100 million so'mlik yutuqni qo'lga kiritdik.

Direktorning aytishicha, maktabdagi ustozlarning yarmidan ko'pi o'n million so'mga yaqin oylik olishadi. Buncha maosh o'qituvchiga shunchaki berilmaydi, bu uchun shunga yarasha natijadorlik bo'lishi kerak. Opaning aytishicha, barchasi sog'lom raqobatga bog'liq. Kadrlar salohiyati ham yuqori natijalarga asos bo'lyapti. Pedagoglar o'z ustida ishlashi va iqtidorli o'quvchilar bilan darsdan keyin ham shug'ullanishi uchun yetarli sharoit yaratilgan. Tanlovlarda g'olib bo'lgan o'quvchilarning ustozlarini rag'batlantirish ham yo'lga

qo'yilgan. Bunga homiylarni jalb qilish orqali erishilgan. Aziza Jalolovanning aytishicha, hech qachon yuqori natijaga erishgan pedagog yoki o'quvchiga birgina faxriy yorliq berish bilan kifoyalanishmagan, ular, albatta, esdalik va qimmatbaho sovg'alar berish orqali rag'batlantirilgan.

Adolatli boshqaruv tizimi bois hozirga qadar yuqori tashkilotlarga maktab rahbariyati ustidan salbiy murojaat tushmagan. Jamoada ona tili kafedra mudiri Nargiza Ibodova, kimyo fani o'qituvchisi Lobar Islomova (vazir ustamasini olgan), ingliz tili fani o'qituvchisi Komil Jumayev singari o'nlab pedagoglar turli sertifikat va ko'plab yutuqlarga ega. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi Mukarram Hazratqulovanning ishlari o'tgan yili respublika bo'yicha om-malashtirildi. Bu ustozlarning nafaqat o'zining, shuningdek, o'quvchilarining yutuqlari ham maktab faxri.

Rus tili fani o'qituvchisi, kafedra mudiri Maqsuda Najmiddinova 10 million so'mdan ziyod oylik olayapti. Yashin Rajabov, Lobar Islomova, Dilnavoz Ibodovalar ham shuncha maosh olishyapti. Ularning shogirdlari xalqaro yutuqlarga erishgan, oliy ta'lim muassasalariga kirishda yuz foizlik natija ko'rsat-

gan, ya'ni birinchi o'rin bilan grantga kirishgan.

Direktor stipendiyasi

1126 nafar o'quvchi ta'lim olayotgan o'quv muassasasida ajoyib an'ana yo'lga qo'yilgan. Direktor tashabbusi bilan o'quv yilida ikki marta sinflar kesimida “Direktor stipendiyasi” joriy etilgan. Birinchi sinfdan o'n birinchi sinfgacha bo'lganlar orasidan har yili yigirma ikki nafar eng a'lochi o'quvchi taqdirlanadi. Bu o'ziga xos ruhlan-tirish.

60-IDUMdagi Behruz Rahmatullayev, Shabnam Ibrohimova, Murodjon Ilhomov kabi o'nlab o'quvchilarni respublikada ham bilishadi. Ular o'z yo'nalishlaridagi tanlovlarda viloyat, shuningdek, respublika sharafiga munosib hi-moya qilib kelishmoqda.

– O'zim rahbarlik qilayotgan sinfdagi shogirdlarimning besh nafari maktab partasidayoq talaba bo'lishdi, – deydi 11-“B” sinf rahbari, oliy toifali o'qituvchi Nazokat Sharopova. – Nasib bo'lsa, o'quvchilarimning hammasi oliy ta'limga kirishadi. Maktabimiz bo'yicha o'tgan o'quv yilida bitiruvchilarimizning atigi to'rt nafari davlat oliy ta'lim muassasalariga kirishmagan. Ular xususiy universitetlarda o'qiyotgan bo'lishi ham mumkin.

Kasb-hunarga qiziquvchi o'quvchilarni tikuvchilik, sartaroshlik, kompyuter operatori va pishiriq pishirishga yo'naltirish ishlari ham yo'lga qo'yilgan.

Obid QO'LDOSH,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi


Amaliyot har bir kadr uchun muhim ahamiyatga ega jarayonlardan biri. Bu davr talabaning kelgusi ish va karyerasida omadli odimlashi uchun muhim hisoblanadi. Xuddi shu ma'noda Jizzax davlat pedagogika universitetida “4+2” tartibidagi amaliyotni tashkil qilishda alohida rejalar ishlab chiqilib, tatbiq etilmoqda. Jumladan, talabalar-ning amaliyoti yuzasidan Jizzax viloyati maktab-gacha va maktab ta'limi boshqarmasi hamda Samarqand va Sirdaryo viloyatining ba'zi tumanlari ta'lim tashkilotlari bilan uch tomonlama shartno-ma imzolandi.

Talaba: amaliyotdan ishgacha

Shartnomaga ko'ra, talabalarni amaliyot jarayonida vaq-tincha, kelgusida esa doimiy ish bilan ta'minlash masalalari hal etilmoqda. Jumladan, universitetda 2023-2024-o'quv yilida bakalavriatdan (2-, 3-, 4-kurs) 8067 nafar talaba-ni 709 nafari (8,7%) ishlaydigan joyida amaliyot o'tagan bo'lsa, 2024-2025-o'quv yilida (2-, 3-, 4-kurs) 7315 nafar talabaning 737 nafari (10,5%) ish joyida amaliyot o'tadi. Bu esa ishga joylashish ko'rsatkichlari ham yildan yilga yaxshilanayotganining yaqqol ifodasidir. Bundan tashqari, JDPU talabalarning amaliyot jarayonidagi ishtirokini samarali monitoring qilish maqsadida zamonaviy elektron platformalar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanmoqda. Ularning vazifalarni bajarishi hamda davomatini nazorat qilish maqsadida elektron plat-formalar joriy etildi.

Jarayon haqida JDPU 3-kurs talabasi Sevinch O'ng'aro-va shunday fikr bildiradi: “Zomin tumanidagi 54-maktab-da “4+2” pedagogik amaliyotini o'tayapman. Bu turdagi amaliyot universitetda o'rganiganlarimizni bir vaqtning o'zida amaliyotda tatbiq etish imkoniyatini yaratmoqda.

Universitetimizda aynan amaliyot uchun joriy etilgan platforma orqali nafaqat talabaning amaliyoti kuzatib ba-holanadi, balki mas'uliyat, ishga ijobiy munosabat ham o'z vaqtida o'rgatib boriladi. Ya'ni texnologiyani aldashing iloji yo'q va talabaning birdan bir yo'li – vazifalarni vaq-tida bajarish, amaliyot muassasalariga vaqtida borish va ja-rayonda faol bo'lish”.



Bu platformalar orqali talabalarning amaliyotdagi ishtiroki mas'ullar tomonidan kuzatib boriladi. Jizzax shahridan tashqari hududlarda amaliyot o'tayotgan tala-balar davomati maxsus bot orqali elektron platformaga kiritiladi. Bu amaliyot davomida talabalarning o'z vaqtida ta'lim muassasasiga borishi va vazifalarni to'liq bajarishi ta'minlanishiga yordam beradi. Shuningdek, talabalarning amaliyot o'tashdagi tajribalarini ko'proq oshirish maqsadi-da, ular o'qiyotgan yo'nalish bo'yicha bo'sh ish o'rinlari mavjud bo'lgan holatlarda vaqtinchalik ish bilan ta'minlash choralari ko'rilmog'da. Kelgusida to'liq ish bilan ta'minlash maqsad qilib qo'yilgan. Jarayonda talabalarga qo'yilgan yuqori talab va e'tibor kelajakda yuqori malakali peda-goglarni tayyorlash uchun mustahkam zamin yaratadi.

Alisher OLIMOV,
JDPU “Sport turlarini o'qitish metodikasi”
kafedrasini mudiri,
dotsent

O'qituvchilar ijtimoiy himoyasi jamiyat rivojiga xizmat qiladi



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi O'zbekistonimiz millati, tili, dinidan qat'i nazar, har bir inson o'z qobiliyati va iste'dodini, bilim va tajribasini ro'yobga chiqara oladigan ijtimoiy davlatga aylanmoqda. Bugungi kunda ta'lim va tarbiya sohasining bosh maqsadi – O'zbekiston yoshlarini ilmiy va vatanparvar etib tarbiyalashdan iboratdir.



Oxirgi 8 yilda ta'limni rivojlantirishga jami **216 trillion so'm** mablag' yo'naltirilib, shundan **19,5 trillion so'm** moddiy-texnik bazani mustahkamlash uchun sarflangan. Buning hisobiga **6 mingta davlat maktabi** va **3,5 mingta bog'cha** rekonstruksiya qilindi va yangidan qurildi. Natijada maktablarda **800 ming**, bog'chalarda **535 ming** qo'shimcha o'rin yaratildi.

O'qituvchilarga mahorati, ish staji, til bilishi, erishgan yutuqlariga qarab to'lanadigan ustamalar soni **3 tadan 17 taga** oshirilib, **10 million so'mdan ziyod** ish haqi oladigan o'qituvchilar soni **6 ming nafardan oshdi**.

Umumta'lim maktablari bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish darajasi so'nggi **8 yilda 9 foizdan 40 foizga oshdi**.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ilk bor pedagog maqomi alohida belgilandi, joriy yilda esa O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

O'qituvchilarning o'z kasbiga jonkuyarligi, mashaqqatli mehnati natijasida o'quvchilarimizning xalqaro fan olimpiadalaridagi natijalari sifat jihatdan yildan yilga o'sib bormoqda. Masalan, 2021-2022-o'quv yilida o'quvchilarimiz **45 ta**, 2023-2024-o'quv yilida **121 ta medallarni** qo'lga kiritishdi.

Soha xodimlarining mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va rag'batlantirish Prezidentimizning doimiy e'tibor markazida. Taraqqiyot dasturi bo'lmish "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ta'lim tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha yangi maqsad va rejalar belgilangan.

Mana shunday sharaflı vazifani ado etishda muhtaram ustoz va murabbiylarga har tomonlama yordam va ko'mak berish kasaba uyushmalarining ham burchi hisoblanadi.

O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi tomonidan yakunlangan yil sarhisobi

sifatida o'zining munosib mehnati bilan Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligiga, shuningdek, kasaba uyushmalari harakati rivojiga hissa qo'shayotgan eng faol, fidoyi va tashabbuskor insonlar mehnatini e'tirof etish an'anaga aylanib bormoqda.

O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi 2024-yilda **18 ming 500 tadan ziyod boshlang'ich tashkilotlarda** faoliyat yuritayotgan **1 million 900 ming nafar kasaba uyushma a'zolarini** qamrab olgan.

Soha xodimlarini ijtimoiy-huquqiy himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirliklari bilan tarmoq kelishuvlari imzolangan.

Tarmoq kelishuvlari xodimlarni ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy himoya qilish, ularning mehnati va dam olishini tashkil etish, salomatligini mustahkamlash, mehnat munosabatlarini yanada tartibga solish, mehnat qonunchiligi buzilishining oldini olish chora-tadbirlarini o'z ichiga oladi. Tarmoq kelishuvlari doirasida ta'lim sohasi xodimlarini himoya qilgan holda bir qator ishlar olib borilmoqda.

Jumladan:

◆ Ta'lim tizimidagi barcha qonun hujjatlarini qabul qilishda Respublika kengashi bilan kelishishga erishildi va rasman kelishilmagan hujjatlar bekor qilindi. Misol uchun, "Pedagogning maqomi to'g'risida", "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlarda ko'plab takliflarimiz inobatga olingan.

◆ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga majburiy mehnatga jalb qilgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish bo'yicha Respublika kengashining taklifi Senat orqali kiritildi va bu taklif takomillashib, Jinoyat kodeksida o'z aksini topdi. Jinoyat kodeksida aynan pedagoglarga nisbatan mehnatga majburlash uchun jinoiy javobgarlik kiritilganligi e'tirofga loyiq.

◆ Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining "Jismoniy tarbiya" fanining qish mavsumida qisqartirilayotgan o'quv soatlarini saqlab qolish bo'yicha bir necha oy muzokaralar olib borilib, **13 mingdan ziyod pedagoglarning huquqlarini** tiklashga erishildi.

◆ Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining ta'lini qisqartirish taklifi bo'yicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasida bo'lgan qizg'in munozaralar natijasida aynan kasaba uyushmasi xulosasi g'olib chiqib, ta'lining avvalgi muddati saqlab qolindi.

◆ Kasaba uyushmasi a'zolari, tarmoq tizimi xodimlarining huquqlarini himoya qilish yo'lidagi sa'y-harakatlar natijasida 203 million so'm miqdorida xodimlarning sog'ligiga yetkazilgan zarar uchun to'lanishi kerak bo'lgan pul mablag'lari undirib berildi.

◆ Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksida pedagog xodimlarning uzaytirilgan mehnat ta'tillari Vazirlar Mahkamasi tomonidan ishlab chiqilishi belgilangan, ammo ushbu hujjat o'z vaqtida ishlab chiqilmadi. Mazkur masala ko'plab munozarali holatlarni yuzaga keltirdi, hattoki rasmiy ijtimoiy tarmoqlar orqali chiqish qilinib, mutasaddi tashkilotlar tanqid qilindi.

◆ Pedagog xodimlarga aynan malaka toifasiga mos ravishda haq to'lanishi ham nazoratga olingan. Misol uchun, pedagoglarning ish haqi va bir qator ustamalar hisoblanishi maxsus kompyuter dasturlari orqali amalga oshiriladi. Ushbu dasturlarga ayrim qonunchilikdagi o'zgartirishlarning kiritilishi kechikishi yoki joylarda noto'g'ri talqin qilish natijasida to'lovlarda xatoliklar uchrab turadi. Joriy yilda ko'plab pedagoglarning ish haqi to'lovlari bo'yicha ijobiy natijalarga erishildi.

O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi tashabbusi bilan ta'lim muassasalarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan jamoaviy nizolarni hal etish maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan hamkorlikda doimiy asosda faoliyat yurituvchi **Respublika tarmoq mehnat arbitraj**i tuzishga erishildi.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti va O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi qo'shma dasturiga muvofiq 2024 yil 16–18-aprel kunlari Qozog'iston, Tojikiston, Ozarboyjon turdosh kasaba uyushmasi vakillari ishtirokida Buxoro shahrida Xalqaro Mehnat Tashkilotining "Mehnat sohasida zo'ravonlik va ta'qibga barham berish to'g'risida"gi 190-sonli Konvensiyasiga bag'ishlangan xalqaro seminar o'tkazildi.

Tarmoq kasaba uyushmasi tuman (shahar) bo'linma kengashlari raislaridan 100 nafari va buxgalterlaridan 95 nafari, jami 195 nafar yetakchi faollarimiz O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Malaka oshirish instituti NTM o'quv kurslarida malakalarini oshirdi. Buning natijasida, O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining o'ttiz uch yilligi

hamda "1-oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni" bayramlari munosabati bilan ta'lim sohasida erishayotgan yuksak natijalari, Yangi O'zbekiston bunyodkorlari bo'lgan yetuk avlodni shakllantirish yo'lidagi munosib xizmat qilib kelayotgan hamda kasaba uyushmasi hayotida faol ishtirok etayotgan **100 nafar pedagog faxriylarga O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan "Chinobod Plaza" sanatoriysiga bepul yo'llanmalar berildi**.

2024-yil davomida Kasaba uyushmasining hududiy, tuman(shahar) bo'linma kengashlari hamda boshlang'ich tashkilotlar tomonidan **21 ming** nafardan ziyod tarmoq xodimlari va ularning oila a'zolari, a'zolik badallari, shuningdek, ijtimoiy sug'urta badallari hisobidan, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimidagi sanatoriylar va dam olish uylarida imtiyozli sog'lomlashtirildi.

2024-yil yozgi mavsumida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tasarrufidagi Bolalarning dam olishini va sog'lomlashtirilishini tashkil etish departamentiga qarashli oromgohlarda ta'lim tizimi xodimlarining jami **18 945 nafar farzandlari ham sog'lomlashtirildi**.

2024-yil mobaynida **90 ming nafarga yaqin maktabgacha, maktab, kasb-hunar va oliy ta'lim sohalari xodimlarining** respublikamizning tarixiy Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlari hamda poytaxti azim Toshkent shahriga sayohatlari uyushtirildi.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tashabbusi bilan "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Sport vazirligi bilan hamkorlikda tashkil etilgan "**Sog'lom tanda – sifatli ta'lim**" sport musobaqalarida **210 mingdan** ortiq umumta'lim maktablari xodimlarining ishtiroki ta'minlandi.

O'zbekiston Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasining www.talim.kasaba.uz veb-sayti yangilanib, imkoniyatlari kengaytirildi.

Zamon talablaridan kelib chiqib tarmoq kasaba uyushmasining rasmiy Telegram kanali ham tashkil etilgan: **@talimfankasaba**

Bundan tashqari, kasaba uyushmasi a'zolari nizoli holatlarda murojaatlarini ishonch raqami yoki Telegram orqali yaratilgan maxsus bot **@talimfankasabagamurojaat** orqali yubora oladi. Mazkur bot ikki yildan buyon uzluksiz ravishda 24/7 rejimida faoliyat yuritib kelmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim yo'nalishida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarning yollanma xodimlarini jamoa shartnomalari bilan qamrab olish kampaniyasini olib boryapmiz. Bu orqali ko'plab xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilishga erishiladi.

Lazokat TURIKOVA,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi bosh mutaxassisi




Kim ijodkor, kim topqir?



Tabiiy fanlar darsida yangi metodlar orqali o'quvchilarning puxta bilim olishiga zamin yaratish mumkin.

Applikatsiya o'yini 1–4-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Bunda o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi. Ularga vatman qog'oz, qora qalam, yelim, urug' va bo'yoqlar taqdim etiladi. O'quvchilar O'zbekiston xaritasini urug'lardan foydalanib tayyorlaydi. Qaysi guruh ishini tezkorlik va mohirlik bilan bajarsa, o'sha guruh g'oliblikni qo'lga kiritadi.



Bilamizki, qo'l bilan bajarilgan ishlarning 95 foizi inson xotirasida yaxshi saqlanadi. O'quvchilar bu o'yin orqali O'zbekiston xaritasi, viloyatlar joylashuvi va maydoni haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi. Guruh bo'lib ishlash o'quvchilarda hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Mohir qo'llar o'yinida har bir o'quvchi po'kak yoki yaltiroq qora list, plastilin, yelim, rangli qog'oz va qaychidan foydalanib, topshiriqni partadoshi bilan hamkorlikda bajaradi.

Doskada matematik misollarni o'z ichiga olgan sayyoralar rasmlari beriladi. O'quvchilar ularni yechib, javoblarni ortib borish tartibida joylashtiradi. Bu esa sayyoralar joylashuvini bilishga yordam beradi. Qaysi guruh misollarni to'g'ri yechib, sayyoralarining quyosh sistemasidagi joylashuvini to'g'ri ketma-ketlikda xatosiz va tezkorlik bilan bajarsa, o'sha guruh g'olib bo'ladi.

“Mening tajribam” tanloviga

Tabiatshunoslik darsida amaliy ishlarni samarali tashkil etish (2-sinf, tabiatshunoslik)



Tabiatshunoslik darslari o'simliklar yoki ularning qismlari farqiga borish, tanib olishni o'rgatadi. Darslar nafaqat sinfxonada, balki tabiat qo'ynida ekskursiyalarda olib boriladi. Unda o'simliklarni topish va to'plash, namunalar yig'ish, ularning yoshi, vegetativ usullari, tuproq kesmalari, moslashishlari, o'zgaruvchanlikni o'rganish o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatiga qarab tanlab berilishi lozim.

Amaliyot insonning tabiat bilan munosabatida asosiy omil bo'lib, bu o'z navbatida, ijtimoiy ishlab chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Amaliy uslublarning turlariga o'quvchilarning tarqatma didaktik material bilan turli narsalar yasashi, rasm chizishi, tabiat obyektlarini tanib olish va aniqlash bo'yicha ishlari, hodisalarni kuzatish va qayd qilishlari, tajriba o'tkazishlari kiradi.

Amaliy ish boshlanishi oldidan qo'yilgan savol, muammo, masalaga o'quvchilarning natijalari bilan javob berishi kerak. 2-sinfda dasturlashtirilgan o'qitishda tezis turdagi tarqatma topshiriqlar, raqamlar, testlar, grafik topshiriqlardan foydalanish mumkin.


“So'z top” o'yini metodida o'qituvchi qushlar, hayvonlar, meva, sabzavotlar haqida bir so'z aytadi, o'quvchilar esa uni davom ettiradi. O'qituvchi boshlagan so'z qaysi harf bilan tugasa, o'quvchi shu harfdan boshlangan so'z aytishi kerak. Masalan: *tulki – ilon – ninachi – it – tipratikan – nortuya – yalqov(panda) – ayiq – qarg'a – ari* va hokazo. Bu usul o'quvchilarni tezkorlik bilan javob berish hamda xotirasini mustahkamlashga yordam beradi.

“Klaster” usuli. Ushbu metod o'quvchi berilgan mavzu bo'yicha erkin o'ylashi va fikrlarini bemalol bayon etishi uchun sharoit yaratadi. Unda o'quv-

chi nimani o'ylagan bo'lsa, shuni aytadi va yozadi. Yozilgan fikrlar to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishidan qat'i nazar, muhokama qilinmaydi va belgilangan vaqtgacha davom etadi. Bu usul har bir o'quvchi tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni uyg'unlashtirib, ular o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash imkoniyatini yaratadi.

Klaster usuli yangi mavzuni boshlashdan avval o'quvchini darsga qiziqitirib, shu mavzu bo'yicha oldin egallagan bilimlarini aniqlash hamda o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun o'tkaziladi. Masalan, “O'lkamizdagi uy va yovvoyi hayvonlar” mavzusi.


“Mozaika” usuli. Mayda bo'laklardan yaxlit ko'rinishni hosil qilish usulida qushlar, hayvonlar, daraxtlar, mevalarning rasmlari bo'laklarga bo'linib, har bir guruhga alohida tarqatiladi. Guruh qatnashchilari bo'lakchalarni bir butun ko'rinishga keltiradi. Guruh sardorlari yaxlit holga kelgan hayvon, meva yoki daraxt haqida gapirib beradi.



Matematik misollarni sinf o'quvchilari yoshiga moslab o'zgartirish mumkin. Bu o'yinni amaliy mashg'ulot, loyiha ishi, nazorat ishi yoki to'garak mashg'ulotlari vaqtida amalga oshirish maqsadga muvofiq. Mazkur o'yin orqali o'quvchilarning aqliy faoliyati rivojlanib, mantiqiy fikrlashi oshadi.

Venn diagrammasi. So'zlar raqamlar bilan ifodalanib doskaga osiladi. O'quvchilar kodlashtirilgan so'zlarni Venn diagrammasiga yozadi. Masalan, 3-sinf o'quvchilariga “Umurtqasiz hayvonlar” mavzusi yuzasidan quyidagicha mashg'ulot tashkil qilish mumkin. Ushbu kodlashtirilgan so'zlarda dengizda va quruqlikda yashovchi umurtqasiz hayvonlar nomi berilgan. O'quvchilar so'zlarni o'qib diagrammaga yozadi. Diagramma o'rtasiga ular orasidagi o'xshashlik yoziladi.

- 1) 1,10,19,8,13,8,23,1
- 2) 10,1,15,1,11,1,10
- 3) 12,4,3, 20,24, 1
- 4) 27,8,11,11,8,16,20,17,19
- 5) 18,1,10,10,8,24,14,23,14,16
- 6) 12,14,11,11,23,20,18,10,1



Irodaxon SHODIYEVA,
Zo'rovon tumanidagi
12-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

“To'xtab o'qish” usuli. O'qituvchi o'quvchilarni matn bilan tanishtirish jarayonida bir necha marta to'xtab, savollar bilan murojaat qiladi. Savollar aynan matnga tegishli bo'ladi. Yoki o'quvchi matn o'qish jarayonida to'xtatilib, nima haqida o'qiganligi so'raladi. Bu usul orqali o'quvchilarning diqqati jamlanadi, mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllanadi.

Tabiatshunoslik fani orqali o'quvchilar kuz faslida hosil yig'ish, ularni saqlash qoidalari bilan ham tanishadi. Urug'larni yig'adi, tuproqqa ishlov beradi, rezavor mevalar, buta va mevali daraxtlarni qishga tayyorlaydi. Bundan tashqari, o'quvchilar mevali daraxtlarning tanasi hamda asosiy poyasidagi eski po'stloqlarini olib tashlaydi, tana atrofiga tuproq tashlaydi, unga o'g'it soladi va manzarali butalar o'tqazadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quv-tajriba maydonchasidagi ishlarni tashkil qilishda iqlim sharoitlari va boshqa masalalarni biologiya o'qituvchisi bilan kelishib olishi lozim. O'quvchilar boshlang'ich sinfdan boshlab tabiatni o'rganadi, tabiat ustida kuzatishlar olib boradi, ekskursiyalarda ishtirok etadi. Shu orqali materiallar to'planadi va ular o'lkashunoslik burchagiga joylashtiriladi.

Mushtariybonu SOBIROVA,
Muborak tumanidagi
5-maktabning boshlang'ich
ta'lim o'qituvchisi,
O'g'iloy G'AFUROVA,
shu maktabning biologiya fani
o'qituvchisi

Xotira uyg'onsa go'zaldir

“O‘QUVCHI HAQIGA XIYONAT QILMA!”

O‘quvchilarga puxta bilim beruvchi va ularning axloqiy fazilatlarini shakllantiruvchi maktab fidoyi ustozlar bilan qutlug‘ dargohga aylanadi. Ular oradan necha yillar o‘tsa ham shogirdlar qalbida yashayverar ekan. Oliy toifali matematika o‘qituvchisi – otam, jadid bobolarning munosib izdoshi Mulla Karim ota o‘g‘li Toshvoy muallimni shogirdlari yodga olganida shunday fikrga keldim. Hozir otam hayot bo‘lganida 100 yoshni qarshilagan bo‘lardi. O‘z kasbiga sodiq, halol inson edi.

Kechalari tong otguncha ertangi kun darslariga tayyorlanardi. Yakshanba kunlari xontaxta ustida matematikaga oid darsliklar, jumladan “Qiziqarli matematika” singari bir qancha kitoblari ochiq turardi. 1972-yili 10-sinfda o‘qirdim, har doimgidek dadam yonida o‘tirib dars tayyorlayotgandim.

– Dada, nafaqat bu mavzu, balki butun kitob sizga yod bo‘lib ketgan-ku, nimaga har kuni 3-4 soat konspekt yozib, tayyorlanasiz, – dedim bola qalbim bilan qiziqib.

Chap qo‘lining to‘rt barmog‘ini peshonasiga qo‘yib, daftaridagi piramida shakliga tikilib, nimaningdir yechimini izlayotgan dadam ko‘zoynak ustidan jiddiy qarab, savolimga savol bilan javob qaytardi:

– Buni qara, piramidaning yon qirrasini qanday topasan?

Chizmaga yaxshilab tikildim-da, “Yon qirrani Pifagor teoremasi orqali topaman” dedim.

– Hamma gap shunda-da, o‘g‘lim, boshqa bolalar ham xuddi sendek o‘ylaydi. Bu uzoq yo‘l. O‘tkir burchak sinusining ta’rifidan foydalanish yoki chizmadan “Misr uchburchagi”ni ko‘rish ham mumkin. Shunda yechim osongina topiladi. Endi tushundingmi, o‘qituvchi ertangi kungi darslariga nima uchun tayyorlanishi kerakligini? Agar darsga puxta reja tuzib kirmasam, yuqoridagi masalani eskicha tushuntirib berardim...

– Endi tushundim, – dedim.

Oradan ikki oy o‘tib dadam mendan so‘radi:

– Rahmatulla, maktabni tugatib kim bo‘lmoqchisan?

Bu savolni bugun bo‘lmasa, ertaga berishini bilardim.

– Sizga o‘xshab o‘qituvchi bo‘laman!

– Sen texnikaga qiziqasan, Aloqa instituti yaxshimasmi senga?

– O‘qituvchilik yaxshi, dada.

– Mayli, o‘g‘lim, shuni xohlabsan, endi bo‘sh vaqtingda birga tayyorgarlik ko‘ramiz.

ToshDUning matematika fakultetiga o‘qishga kirdim. Vaqti kelib aspiranturada o‘qishni davom ettirishni taklif qilishdi. Oilaviy sharoitim tufayli bu taklifni qabul qilolmadim...

“Mutafakkirlar fikriga ko‘ra, sayyoramiz aholisining juda kichik qismigina hayot talab etgan odob, tartib, qonun-qoidalarga bo‘ysunib ibratli inson degan nomga sazovor bo‘larkan. Ustozimiz Toshvoy aka Karimov ana shunday saralangan kishilar sirasi-

dan, ibratli inson edilar, – deydi otam haqida shogirdi, texnika fanlari doktori, professor, Rossiyaning xalqaro muhandislik hamda Ukrainaning texnologiya akademiyalarining akademigi, mehnat faxriysi Ne‘matilla Mo‘minov. – Toshvoy aka darsga kirganda sinfda suv quygandek jimjitlik paydo bo‘lardi. U misol, masala va matematik jumboqlarni bizga xuddi badiiy asarni tushuntirgandek tushuntirib berardi. Toshvoy akani o‘quvchilar chin ko‘ngildan hurmat qilishardi. Matematikaning hayotda tutgan o‘rnini yorqin misollar bilan talqin qilib, o‘quvchilarda fanga nisbatan mehr uyg‘otardi.

Aspiranturani muvaffaqiyatli tugatdim. Bajarilgan ilmiy ishlarimda matematik usullarni qo‘llashdagi mohirligim domlarning e’tiborini o‘ziga tortdi shekilli, “Matematika fanini kim o‘qitgan?” deb so‘rashdi. Shunda ularga Toshvoy aka haqida so‘zlab berdim. Doktorlik dissertatsiyamda turli matematik modellashtirishlar mavjud edi. Ularni ishlab chiqdim. Natijalarni ko‘rib, tahlil qilgan olimlar ham yana menga shu savolni berishgandi. Savol berganlarni Toshvoy akaning ilmiy unvoni yo‘qligi ajablantirgan edi. Haqiqatan ham, Toshvoy aka ilmiy iqtidor egasi, katta ilmiy unvonlarga loyiq olim o‘qituvchi edi. Ustoz formulalarni doskaga juda chiroyli yozardi. Texnika fanlari nomzodi, texnika fanlari doktori, akademik darajasiga yetishuvimda ustozim Toshvoy akaning hisssasi katta”.

Shuningdek, davlat arbobi Mirahmad Mirqosimov va u kishining akasi sharqshunos, diplomat Sur‘at Mirqosimov otamni shunday xotirlaydi: “Uyga bergan vazifalar bajarilishini talabchanlik bilan nazorat qilardi. Maktabdagi keng yo‘lakda sinf jurnalini qo‘ltiq olgan Toshvoy aka ko‘rindimi, barchamiz sinfda o‘z joyimizni egallab, uyga berilgan vazifa yechimi yozilgan daftarni ochib qo‘yib, miq etmay o‘tirardik. Bu holat u kishidan qo‘rqish emas, balki uni hurmat qilish edi, deb o‘ylaymiz. Domla har bir o‘quvchining daftarini alohida ko‘rib, baholardi. Ustozning “Matematika shunday fanki, bugungi o‘tilgan qoida yoki masala yechimini to‘liq tushunib yetmaguncha keyingi darslar mohiyatini anglab bo‘lmaydi”, deganini unutmaymiz.

Maktab va o‘quv jarayonida belgilangan ichki qoidalarga amal qilib, intizom saqlashimizni qat’iy talab qilardi. Qalbimda ardoqlab kelayotgan ustozim Toshvoy Karimov haqidagi xotiralarimni



ayni paytda ustozning muborak 100 yillik to‘ylari arafasida qog‘ozga tushirishga jazm qildim.

1972-yili Toshkent shahridagi 81-maktabni tugatdim. Shu yili Moskva geodeziya, aerofotosyomka va kartografiya muhandislari institutiga hujjat topshirdim. Kirish imtihonlari Toshkentda bo‘ldi. Matematikadan bo‘lgan yozma imtihondan “5” baho oldim, so‘ngra yana og‘zaki imtihonga kirib biletdim oldim va domlaga ruxsat bersangiz, tayyorlanmasdan javob beraman, deb aytdim. Biletdagi hamma savolga a‘lo darajada javob berdim. Domla o‘ylanib matematikadan qo‘shimcha bitta savol berdi. Unga ham darhol javob berdim. So‘ngra qog‘oz oldi-da, geometriyadan yana bir masala berdi. Masalani domlarning ko‘z o‘ngida darhol chizma chizib, yechdim. Domla, hujjatimga “5” baho qo‘ydi-da, so‘ng menga yuzlanib: “Qaysi maktabni tugatding, kim o‘qitdi?” – deb so‘radi. “81-maktabni tugatdim, Karimov Toshvoy aka o‘qitdi”, deb javob berdim. U o‘rnidan turib qo‘limni siqib, muvaffaqiyat tiladi. Institutga kirdim. Moskvada besh yil, aspiranturada uch yil o‘qidim. Beshinchi kursda oxirgi imtihon “Kosmik geodeziya”dan bo‘ldi. Imtihonni shu soha bo‘yicha jahonga tanilgan olimlarga topshirdim. Oq qog‘ozni olib birinchi formulaning isbotini yozib berdim, so‘ng ikkinchi formula isbotiga kirishdim. Javobning yarmiga yetganimda domla yakuniyimga “5” qo‘ydi, keyin o‘rnidan turib, xonadan chiqish eshigigacha kuzatib qo‘ydi. Har ikki imtihonda menga matematikadan qo‘yilgan “5” baho va ko‘rsatilgan iltifot ustozim Toshvoy Karimovning mashaqqatli mehnatiga berilgan baho edi. Ustoz ta’lim tizimida yorqin iz qoldirgan, bosiq, madaniyatli, barchaga ibrat bo‘ladigan samimiy inson edi. Hozirgi kunda ko‘plab shogirdlari ustozlik faoliyatini olib borishmoqda. Ustoz-shogird an‘analari davom etmoqda. Ustoz Toshvoy Karimov xalqimiz qalbida mangu yashaydi”.

Otamning yana bir shogirdi Gulchehra Isomuhamedova uni shunday xotirlaydi: “Toshvoy aka Karimov mehribon ustoz, talabchan, qattiqqo‘l sinf rahbari, shu bilan birga katta bilim va tajriba egasi, o‘z fanining chinakam bilimdoni bo‘lgan. Maktabda kasbdoshlari bilan juda samimiy, yosh o‘qituvchilarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadigan va pedagogik mahorati bilan o‘rnak bo‘lgan ajoyib ustoz edi. Biz shogirdlari ustozga mu-

nosib, kamtar, halol, talabchan, bilimli bo‘lish va ustozga juda-juda o‘xshashga harakat qilganmiz”.

Fan doktori, professor Aziz aka Vorisov ustozni shunday eslaydi: “Har bir insonning qiziqishi, kelajak maqsadi bo‘lgani kabi menda ham ustoz Toshvoy akadek matematika fani ustoz bo‘lish istagi tug‘ildi. Bu mo‘tabar insonning mashg‘ulot olib borishini qancha ijobiy so‘zlar, amaldagi atamalar bilan ifodalasangiz ham masalaning mohiyati kemitdek tuyulaveradi...

Ustozimiz Toshvoy aka dars mashg‘ulotlaridan tashqari to‘garak tashkil etdi, men ham qolgan o‘quvchilar qatori matematika faniga qiziquvchilar safida ushbu to‘garakda ishtirok etdim. To‘garak mashg‘ulotlarida o‘ziga xos o‘quv adabiyotlari qatori o‘sha yillari mamlakatning deyarli hamma oliy ta’lim muassasalarida matematikadan kirish imtihonlari uchun misol va masalalar tuziladigan N.P.Antonov va boshqalar hammuallifligida yozilgan “Elementar matematika masalalari to‘plami” kitobidan misol va masalalar yechilardi. To‘garak mashg‘ulotlarida Toshvoy aka rahbarligida ushbu kitobdagi misol va masalalarni to‘liq yechib chiqqanmiz. Natijasi esa butun umrimga tatidi”...

“Matematika faniga qiziqishimni uyg‘otgan ustoz Toshvoy aka Karimov bo‘ladi, – deya faxr bilan eslaydi Uchtepa tumanidagi 4-maktabning faxriy matematika o‘qituvchisi Matluba Saydaminova. – Ulardagi halollik, soddalik, mehnatsevarlik, xushmuomalalik kabi fazilatlar va matematika ilmini san’atga aylantirish yo‘lidagi izlanishlari-yu, chuqur bilimiga havas qilib, o‘qituvchi bo‘lishga qaror qilganman. Maktabni sog‘inib, bolalik davrimni eslasam, xayolimga, albatta, matematika darslari keladi. Butun sinf go‘yoki musiqiy asarni tinglayotganday Toshvoy ustozga quloq tutardik. Toshvoy aka qobiliyatli va fanga qiziqqan o‘quvchilarga erinmay darsdan so‘ng alohida mavzularga doir murakkab misol va masalalarni o‘rgatardi”.

Har doim otam sabab matematika yoki unga aloqador sohani tanlagan shogirdlariga duch kelganimda shunday porloq xotiralar bilan o‘rtoqlashishadi. Bu esa boshqalarga yaxshilik qilish, dunyoga taniqli shogirdlar tarbiyalashga undaydi.

Rahmatulla KARIMOV,
O‘zbekiston xalq o‘qituvchisi

Har yilning o'z saxovati, yaxshiliklari, qoldiradigan izi bor. “Ma’rifat” gazetasi jamoasi ham yil sayin yangi-yangi faol mualliflar bilan hamkorlikka erishmoqda. Yildan yilga gazetamiz yulduzlarining “kashf etilishi” natijasida mushariy va mualliflar safi kengaymoqda. Bu hamkorlik natijasida ko‘plab ijod namunalari, pedagoglar faoliyati uchun asqotadigan metodik tavsiyalar chop etildi. 2024-yil ham “Ma’rifat” yulduzlari” safi qalamli o‘tkir, muammolarga befarq bo‘lmagan, mohir pedagoglar bilan kengaydi. Keling, ularning ham yil so‘ngidagi dil so‘zlari bilan tanishaylik.

“Ma’rifat” bilan hamkorlik menga nima berdi?

Usmon JO‘RAYEV, Bo‘ka tumanidagi 8-maktab o‘qituvchisi:



– “Ma’rifat” bilan hamkorlik qila boshlaganimdan buyon, e’tibor bersam, ta’lim sohasida yetilgan, lekin yechimini topmayotgan ko‘plab muammolarni gazeta sahifasida ko‘tarib chiqibmiz. Ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan fikrlarim hamkasblarimni befarq qoldirmadi, deb o‘‘layman. Maqolalarimda o‘qituvchilarning manfaatini himoya qila olganimdan mamnunman. Ayni

paytda u yoki bu masaladagi ochiq, ba‘zan keskin fikrlarimni e‘lon qilgan “Ma’rifat” tahririyatiga minnatdorchi-lik bildiraman.

Gazeta meni pedagoglarga yanada ko‘proq tanitdi. Buncha keng pedagoglar jamoasiga 5-sinfilar uchun “Tarixdan hikoyalar”, 8-sinfilar uchun “O‘zbekiston tarixi” va “Jahon tarixi”, 9-sinfilar uchun “Jahon tarixi” va “Dunyo dinlari tarixi” darsliklari bilan tanilgan bo‘lsam-da, “Ma’rifat” bugun ta’lim va tarbiya sohasida to‘planib qolgan dolzarb muammolar va ularning sabablari haqida erkin fikr bildirish imkonini berdi.

Barcha gazetalar, jumladan, “Ma’rifat”ga maqola tayyorlash oson ish emas. Muallif bitta maqola yozish uchun qanchadan-qancha adabiyot titkilaadi, ulardan olingan ma’lumotlarni tahlil qiladi, hayot bilan, bugungi reallik bilan taqqoslaydi, so‘ng bir xulosaga keladi. Ana shu xulosasini qog‘ozga tushiradi. Binobarin, gazeta bilan hamkorlik sizni ijod bilan doimiy shug‘ullanishga, o‘z ustingizda yanada ko‘proq ishlashga majbur qiladi.

“Ma’rifat”ni muntazam o‘qib unda e‘lon qilingan maqolalarni boshqa gazetalar materiallari (“Yangi O‘zbekiston”, “Jadid”, “Milliy tiklanish”, “Adolat”) bilan taqqoslab, ularni tanqidiy mushohada etib boshladim. Masalan, “Ma’rifat”ning 1-betida “O‘qituvchi nimani o‘ylaydi?” ruknini olaylik. Unda o‘qituvchilarning u yoki bu muammoga oid qisqa-qisqa fikrlari berib boriladi. Bu fikrlar kimlargadir juda jo‘n, oddiy, kimlargadir esa kerak emasday tuyuladi. Aslida-chi, aslida ularda har birimizni o‘ylan-tirishi kerak bo‘lgan mulohazalar aks etadi. Menimcha, bu mulohazalarni yurt oydinlari ham o‘qib borsalar, ta’limdagi, maktablardagi muammolar haqida aniqroq tasavvurga ega bo‘lishardi. Lekin ular o‘qisharmikan?

Yaqinda eng nufuzli OTMd an biri sanalmish Nizomiy nomidagi TDPuning fakultetlaridan birida bo‘ldim va suhbat jarayonida fakultet nechta “Ma’rifat” gazetasi oladi, deb so‘radim. Afsus, bitta ham olishmas ekan. Mana sizga ulug‘ oliy o‘quv dargohi xodimlarining “Ma’rifat”ga munosabati. Agar har bir fakultet atigi 1 donadan “Ma’rifat” olganida edi, maktablar uchun mahoratli pedagog kadrlar tayyorlashga da’vat etilgan OTM maktablardagi bugungi ahvoldan, o‘zlari o‘qitgan sobiq talabalarining bugun maktablarda qanday ishlayotganliklaridan xabardor bo‘lib turgan bo‘lardi. Lekin afsus, unday emas ekan. Umid qilamanki, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo‘ng‘irotboy Sharipov bu masalada hurmatli rektorlarimizga tegishli ko‘rsatmalar beradi.

2023-2024-yillarda “Ma’rifat”da 8 ta maqolam e‘lon qilindi. 2024-yili e‘lon qilingan “Millatning ma’naviy qiyofasi” nomli maqolam esa “Ma’rifat” tahririyatining mukofotiga sazovor bo‘ldi. Bunday e’tirofdan quvondim.

“Ma’rifat” YULDUZLARI – 2024

Istagim – gazeta tahririyati yanada rivoj top-sa. “Ma’rifat” ilgariidek har bir ta’lim maskani-ga kirib borsa! Har bir ta’limga aloqador rahbar va tashkilot “Ma’rifat”ga obuna bo‘lsa va ta’limni yuksaltirishga qaratilgan, yonib-kuyib aytilayotgan fikr va takliflarni o‘qib, ularni jarayonda qo‘llashga oshiqsa!

Besh yillik qadrdonim!

Xurshida ATAVULLAYEVA, Kasbi tumanidagi 14-maktab o‘qituvchisi:



– Hayotimizga internet kirib kel-di va u avvaliga sekin-astalik bilan, keyin esa shiddat bi-lan o‘tmashib oldi. Ijtimoiy tarmoqlarda esa kichik xabarlardan tortib, toki badiiy asar namunalariga-cha o‘qish imkoni paydo bo‘ldi. Buning ta’siri o‘la-roq ommaviy axborot vosi-talaridan biri bo‘lgan bosma nashrlar ham biro z nazardan chetga surildi.

Ammo har narsaning tabiysi, jonlisi o‘z jilosi va tarovatini yo‘qotmasligini “Ma’rifat” gazetasi yillardirki isbotlab kelayotir. Bu gazeta hayotimda alohida o‘rin va muhabbatga loyiq.

O‘qituvchilik faoliyatim barobarida badiiy ijod-ga qiziqishim meni Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlari hayoti va faoliyatiga doir maqolalar yo-zishga undadi. Boburning bir qancha ruboyilariga tahlil yozarkan, uni o‘quvchilar, adabiyot muhi-blari bilan bo‘lishgim kelardi. Shunday kunlarning birida “O‘zbekchani o‘zbekchadek gapiraylik” sar-lavhali maqolam bosildi. Gazeta muharrirlari Hu-san Karvonli va Zilola Muhammadali bu maqola haqida iliq fikr bildirishgach, menda Bobur ru-bo-yilari haqida yozgan tahliliy maqolalarimni aynan shu gazetaga yuborish fikri va istagi tug‘ildi.

Mana, o‘tgan besh yil ichida o‘nga yaqin tahliliy maqolalarim shu gazetada chop etildi. Ko‘plab gazetxonlar olqishi va e’tirofini oldi! Badiiy va ilmiy jihatlari xususida iliq fikrlar bildirildi! Buning uchun gazeta xodimlariga o‘z minnatdorligimni va chuqur hurmatimni bildiraman!

“Ma’rifat” gazetasi ma’rifat ulashishda davom etishida va gazeta xodimlarining mashhaqqatli mehnat faoliyatida kuch-quvvat tilab qolaman!

Beminnat tajribalar almashiladigan ijodiy maydon

Fazliddin ABDURAIMOV, Termiz shahridagi Prezident maktabi o‘qituvchisi:



– Maktabda o‘qib yurgan kezlirim qaysidir ustozimiz yoki maktabdoshimizning she’ri, maqolasi “Ma’rifat” gazetasida chiqibdi degan gapni eshitganimda etim jimirlab ketardi. Ijodiy ishi nashr etilgan ustozla-rimiz va o‘quvchilarga ha-vas qilardim. Oradan yillar o‘tib oliygohlarda bilim olib, ta’lim maskanlarida ishlab, tajri-balar orttirib, qalbimdagi fikrlarimni

qog‘ozga tushirib, “Ma’rifat” tomon yo‘llay olayotganim men uchun katta quvonch va baxt.

El orasida ustoz-muallim deb atalar ekanmiz, nafaqat

o‘z jamoadoshlarimiz, balki butun ziyolilar ahli, keng ja-moatchilik bilan o‘z qarashlarimiz, tajribalarimizni bo‘li-shishimiz kerak, deb o‘‘layman.

Hamon ko‘z oldimdan ketmaydi, 2022-yil fevral oyi-da tahririyat joylashgan binoga maktabimiz jamoasining gazetaga obuna bo‘lishi uchun borganimda xodimlarning samimiyligi, yuzlaridan ilm ziyosi taralib turganligi menda katta taassurot qoldirgan.

Shukurki, o‘tgan davr mobaynida o‘nlab maqolalarim nashr etildi. Ijodkor nimadan zavqla-nadi, shodlanadi? Albatta, uning fikrlari respublika ziyolilari nazariga tushishidan, uning ham fikrlarini boshqalar mutolaa qilishidan.

Termiz shahridagi Prezident maktabi jamoasi uchun ham “Ma’rifat”ning ijodiy maydoni qadrlari va qiymatlari. Unda bosiladigan har bir maqolani tahlil qilib, mulohaza yuritadigan hamkasblarim borligidan faxrlanaman.

Aziz vatandoshlar, “Ma’rifat”ning jonkuyar xodimlari – barchangizni kirib kelgan “Yangi yil” bilan qutlayman. Aziz boshingiz omon bo‘lsin, boshlagan ishlaringiz xayrli bo‘lsin. Millatimiz, xalqimiz tafakkurini yanada boyitish yo‘lidagi ishlaringizda omadlar tilab qolaman!

Ma’rifat bilan o‘tgan bir yillik umrim

Zafar MO‘MINOV, Qo‘shrabot tumanidagi 84-maktab o‘qituvchisi:



– Men oddiy qishloq o‘qituv-chisiman, 28 yildirki maktabda faoliyat yuritaman. Ish faoli-yatim shu aziz gazetam bilan bog‘langan. Undagi har bir maqolani qiziqish bilan kuzatib boraman. Faoliyatimda berilgan tav-siyalarni qo‘llab boraman.

Ayniqsa, 2024-yil “Ma’rifat” hayotimda katta o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Unda “Ko‘rgulik” nomli hi-koyam chop etildi. Shundan so‘ng yanada yozishga ishtiyoqim ortdi.

“Xalq ta’limi vazirligiga ochiq xat”, “O‘qituvchi bo‘laman, lekin boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi emas”, “Kitobxonlikka adabiyot o‘qituvchi-si o‘rgatishi kerakmi?” kabi maqolalarim ham ketma-ke-t nashr etildi. Bu qalbmga olam-olam quvonch baxsh etdi. Ayniqsa, 11-dekabrda sonida chiqqan “Maktabga milliy gvardiya xodimi kerak” va “O‘qituvchi dangasmi yoki?” nomli qo‘sh maqolam nashr etilgani hayotimga o‘zgacha quvonch olib keldi. Maqolalarim gazetada bosilib chiqqan kunlari, avvalo, oila a’zolarim (ikki nafar farzandim ham o‘qituvchida), keyin hamkasblarim bilan qizg‘in muhoka-ma qilib olamiz.

Aslida maqola yozishdan ko‘zlagan maqsadim bitta – ta’lim, ayniqsa, milliy ta’limni rivojlantirish. Biz buyuk allomalarning izdoshlarimiz. Bugungi kundagi ta’limimiz-ning kelajagini boshqa davlatlar ta’lim andozasi bilan qurmasligimiz kerak. O‘z milliy ta’limimiz rivojlanishini orzu qilaman.

Men shuncha yillik ish faoliyatim davomida biror maq-tov qog‘ozi olmagan insonman. Lekin ikki yilki “Ma’ri-fat”da bosilgan maqolalarim, hikoyalarim, she’rlarim tu-fayli boshim osmonga yetdi.

Gazetaning muxlislari ko‘payishini istayman. Shu o‘rinda yangi yil uchun “Ma’rifat”ga kichik bir taklifim bor. Gazetaning har sonida alohida bir sahifa ijodkor o‘qituvchilar uchun ajratilsa va unga maxsus nom berilsa. Unda ijodkor o‘qituvchilar-ning she’rlari, hikoyalari doimiy ravishda berib bo-rilsa, nur ustiga nur bo‘lardi. Bu jarayon men kabi ijodkor o‘qituvchilarga ko‘mak, tirgak bo‘lardi.

“Ma’rifat”ning muxlislariga omad yor bo‘lsin. Yangi yilda gazetamiz yangiliklarga boy bo‘lsin!

Ziyoli qatlamni o‘z so‘zini aytishga chaqiradigan qo‘ng‘iroq

Umid ALI, Urgut tumanidagi 98-maktab o‘qituv-chisi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi:



– “Ma’rifat” bilan ilk tanishu-vim qanday kechgani, qachon ushbu gazetani o‘qib, doimiy kuzata boshlaganimni aniq eslay olmayman. Ammo taqdir taqozosi bilan jurnalistik faoliyatim o‘rmini pedagogika egallagach, muhim bir auditoriyaning minbarini band etganimdan so‘ng bu ro‘znoma hayot va ijod yo‘limning bir hamrohiga aylangan rosti.

Men o‘qituvchi bo‘lib ish bosh-laganimdanoo “Ma’rifat” ko‘zlarimga oynak tutgan. Pedago-gik mahorat, metodika, ilmiy izlanishlar, fan olamidagi yutuqlar, ta’lim tizimidagi islohotlar – bularning alifbosini “Ma’rifat”dan o‘rganganman desam, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mana yettinchi yil ketyapti, ziyolilar kenti, barcha kasb-u humarlarga poydevor qo‘yiladigan nurli maskan – mak-tabda o‘quvchilarga ona tili va adabiyotdan dars berib kel-yapman. Bugungi kun o‘qituvchisi va murabbiyi nafaqat o‘z fanining professional bilimdoni bo‘lishi, balki zamon bilan hamnafas yashashi, doimiy yangiliklarni kuzatib bo-rishi, ijtimoiy masalalarni yechishda peshqadam bo‘lishi, muttasil kitob o‘qib, o‘z ong-u shuurini sayqallab turishi, tafakkurdan to‘xtab qolmasligi, bir so‘z bilan aytganda, jamiyatning yetakchi kuchlaridan biriga aylanishi zarur.

Men ijodkorman. Ko‘pchilik qalamkashlar qatori ijodimdan namunalar e‘lon qilib turilishi menga ishonch, ma’naviy va ruhiy kuch-quvvat, ilhom va cheksiz zavq bag‘ishlaydi. Shu yillar davomida ushbu gazetada maqola-lar qatori o‘ndan ziyod hikoyalarim chop etildi. Hali biror nashrda sanoqli muddatda ijod namunalarim bu qadar salmoqli o‘rin egallamagan. “Ma’rifat” mendek bir qa-lamkashning o‘ziga bo‘lgan ishonchini yuksaltirish uchun shunday imkoniyat hozirlagani, bosma nashrlar soni ham, adadi ham qisqarib, qalam ahli minbar talashib qolayotgan bir paytda kamina uchun hotamtoylik qilgani ham oma-dim, ham baxtim. Shu o‘rinda ilm va ijod nuri uyg‘unligida mudroq bosgan qalbларning ko‘zini ochish, ma’naviyatdan moddiylikni avlo bilganlarning ong-shuuridagi changni aritish ilm kishilari, ziyolilar, qalam ahlining vazifasi ekan-ligini yana bir bor ta’kidlagim keldi. Inchunin, niyat pok ekan, maqsad aniq ekan, bu yo‘lida hormay-tolmay mehnat qilishga harakat qilaman.

Shu tob bilasizmi, ko‘nglimga nima o‘y kel-yapti? “Ma’rifat”ni qo‘ng‘iroqqa o‘xshatayman. Ha, oddiy maktab qo‘ng‘irog‘iga o‘xshataman. Bu zang o‘z vaqtida sinfda darslar boshlanib, o‘z vaqtida tugashidan darak berganidek, “Ma’rifat” ham jamiyatda ziyoli qatlam o‘z vaqtida o‘z so‘zini aytishi zarurligidan, ilm-u ma’rifatni keng targ‘ib qilish lozimligidan, faqat ilm bilangina najotga erishish mumkinligidan bong chalib turadi.

Tilagim, “Ma’rifat” ilm-u urfon yo‘lida zang urishdan hech qachon to‘xtab qolmasin.

Uddalashimga ishonchim ortdi

Hilol MAMAJONOVA, Asaka tumanidagi 37-maktab o‘qituvchisi:

– Bir tanishim taklifi bilan “Ma’rifat” mushariylari” telegram guruhiga a’zo bo‘ldim. Va shu kundan boshlab guruhdagi tozaqalb, fidoyi, ilimli uztozlar va gazeta tahririyati men uchun qadrlil bo‘lib qoldi. Ko‘p bilim oldim, huquqim, burchimni yanada chuqurroq anglay boshladim.

Ta’lim sohasidagi yangiliklar, kamchiliklar, muammolar xususida bahslashamiz, axir haqiqatlar muno-zarlarda yaraladi.



Bir oiladekmiz, qay-g‘u-quvonchlarimiz, yutuqlarimizni ham bir-birimiz bilan bo‘lisha-miz. Tom ma’noda gazeta bizning jonkuyarimiz, qal-qonimiz, dard-u hasratlarimizni ham eshitguvchidir.

Maqolalarim “Ma’rifat”da e‘lon qilinganda xursand bo‘ldim. Demak, harakat qilsam, izlansam, o‘qisam ham-masiga erishaman. Uddalashimga ishonchim ortdi. Bunda, albatta, Husan Karvonli ustozdan, gazeta tahririyatidan cheksiz minnatdorman.

Har tong ko‘zimni ochib shu guruhdagi oppoq tilak-lar-u, ilm-ziyo nurlarini, go‘zal she’rlarni o‘qiyman. “Ma’rifat”ning har sonini intiliq bilan kutaman, o‘qiyman, ibrat olaman.

Ta’lim sohasiga ozgina hissamni qo‘shgan holda gazeta tahririyati bilan uzoq yillar hamkorlik qilish umidim bor.

“Ma’rifat” – menga maktab

Dostonbek SHARIPOV, Parkent tumanidagi 21-maktab o‘qituvchisi:



– Onajonimni yaxshi ko‘raman! Ikki farzandini oq yuvib, oq tarab, halol luqma yedirib, tarbiyalab, voyaga yetkaz-gan hazrati insonim! 30 yil ishlab ham biror marta oromgohda dam olmagan, haqiqat uchun kurashib, sira ro‘shnolik ko‘rmagan volidam, mehrbonimning ismlari – Ma’rifat! Ha shun-day, buvimiz ezgu niyatlar ila go‘zal nom qo‘ygan ekanlar.

Nega onam haqida yozdim? Sababi, gazetaga muhabbatimning uch jihati onam bilan bog‘liq.

1. “Ma’rifat” so‘zining lug‘aviy ma’nosi.
2. Men uchun ulug‘, mukarram inson ismi.
3. Gazeta sahifalarida chop etilgan maqolalarni muto-laa qilib, fidoyilik, zahmatkashlik, haq so‘zni aytishdan sira qo‘rqmaslik kabi jonfidolikni sezaman, xuddi onam kabi!

Gazetaga ixlosim onam sabab ekani, shubhasiz! Onam – Ma’rifat Sharipova – ish faoliyatini tumandagi o‘rta maktabda kutubxonachi lavozimida boshlagan. Bir mud-dat tuman gazetasida ishlab, tuman radiosida muharrirlik, suxandonlik qilgan. Keyinroq tuman gaz idorasida kadrlar bo‘limi mutaxassisi lavozimida faoliyat yuritgan va shu joydan nafaqaga chiqdi. Menga ham bir muddat tuman gazetasida ishlash nasib etdi. O‘shanda gazeta arxividagi onam yozgan maqolalarini topib o‘qidim. To‘g‘risi, hozir manaman degan jurnalist ham o‘shandayin maqola yoza olmaydi...

“Ma’rifat” gazetasini maktab kutubxonasida ko‘rardim. Keyin kollej kutubxonasida ham ta’limga oid maqolalarni o‘qiganim bor. Parkentlik olov shoir – Zohidjon Olov “Ma’rifat” gazetasida ishlaydi, degan gapni o‘shanda katta bir unvon kabi tushunganmiz.

Yillar o‘tib, maktabda ishladim va maktabning muam-molari bilan ro‘baro‘ bo‘la boshladim. Maktab kutubxo-nasidagi “Ma’rifat”ni o‘qir ekanman, o‘qituvchilarning toifa, attestatsiya, ustama haqidagi adqosiz bahs-muno-zaralariga javoblar shundoqqina – ko‘rga hassadek qilib yozib qo‘yilgani e’tiborimni tortdi. Dars taqsimoti, peda-gog mahorati, zamonaviy metodlar, o‘quvchilar tarbiya-si kabi mavzularda dolzarb maqolalar gazetaning har bir sonidan joy olgan.

Demak, hali umid bor, maktabni, ta’limni o‘ylay-diganlar ham bor ekan, deb o‘ylagandim o‘shanda. Rosti, har kuni bitta tekshiruvchi keladigan, tomi-dan chakka o‘tadigan, faollar zali abgor, kutubxo-nasida uvadasi chiqqan ellikta kitobi bor, oshxonasi ishlamaydigan, tadbirlar sport zali yoki yo‘lakda, xo‘jako‘rsinga o‘tkaziladigan, kechirasiz-u, hojat-xonaga hatto o‘qituvchilar navbat kutadigan mak-tablarga e’tibor qaratadigan, muammolari yechadi-gan bitta, yakka-yu yolg‘iz nashr qolganini bildim.

O‘sha kezlari o‘zbek tiliga bag‘ishlab yangi yozgan she’rimni chop ettirish xayoli bor edi. Gazeta muharriri Husan Nishonovni ijtimoiy tarmoqdan topish qiyin bo‘l-madi. Salomlashdim, she’rni yubordim, chiqdi! O‘shan-da yana bir bor amin bo‘ldimki, hatto o‘qituvchilar ham kitob, gazeta o‘qimay qo‘ygan! She’rim chiqqan sonni ko‘tarib o‘qituvchilar xonasida naqd ikki soat andamon bo‘ldim hamki, birov “nima yozilibdi?”, “bering, biz ham o‘qiylik”, “ha, she’ringiz chiqibdi, o‘qidik, tabrik!” demadi! Keyin o‘zim o‘sha sonni “reklama” qildim. Kim nima desa desin-u, o‘shandan keyin o‘qituvchilar menga sergaklanib, jiddiyoq qaraydigan bo‘lishdi.

Keyinroq ma’naviyat sohasiga bag‘ishlangan “Biz ishonchni oqlayapmizmi?”, maktabdagi eng ko‘p ishlab, eng kam haq oladigan xodimlarga bag‘ishlangan “Mehnat-ga yarasha rag‘bat kerakdir” sarlavhali maqolalarim gaze-taning ilk sahifalarida chop etildi. Har ikki maqolam gazeta tomonidan tashkil etilgan “Faslning eng yaxshi ijodkori” tanlovida o‘rin oldi. Joriy yil “Kuz fasli g‘oliblari” safida bo‘lish ham nasib etdi.

“Ma’rifat” gazetasidagi dars ishlarnalarni o‘rganib chiqib, ma’naviyat soatlarida qo‘llash uchun ikkita dars ishlarnma tayyorladim. Ularni o‘zim tahsil olayotgan Tosh-kent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchilariga ko‘r-satib, ijobiy xulosalar oldim.

Ham uyimda, ham qo‘limda, ham o‘yimda “Ma’rifat” bor! Boshqa nashrlarda bosilmaydigan, bosishga jur‘at etilmaydigan ayrim maqolalar “Ma’rifat”da, shijoat bilan, yana ilk sahifalarida e‘lon qilinadi. “Ma’rifat” gazeta-si katta ustoz – ustozlarning ustoz! Yurtimiz kelajagiga, o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasiga befarq bo‘lmagan har bir shaxs, davriy nashrlarni muntazam o‘qishi, “Ma’rifat”li bo‘lishi shart!

Tahliliy-tanqidiy maqolalar o‘qishdan o‘zni mahrum qilish ham to‘g‘ri emas

Sayyora YORQULOVA, Olmaliq shahridagi 14-maktab o‘qituvchisi:



– Bir necha yildirki, “Ma’rifat” gazetasi orqali o‘z tajribamni oshirib kelmoqdaman. Faxr bilan ayta olamanki, gaze-ta mening eng sevimli do‘stimga aylanib ulgur-gan. 9 ta maqolam “Ma’ri-fat” gazetasi sahifalaridan joy olgan. Xo‘sh, mazkur gazeta bizga nima bera ola-di? To‘g‘ri, bugun internet orqali axborot olish qulay, ammo faqatgina axborotning tezkorligini muhim bilib, fikr-mulo-

hazali, tahliliy-tanqidiy maqolalar o‘qishdan o‘zni mahrum qilish ham to‘g‘ri bo‘lmas. Gazeta o‘qishni tark etayotgan bugungi jamiyat mana shu sababdan ham “ur-yiqit” ax-borotlar bilangina qanoatlanyapti. Kishi internetda o‘ziga kerak bo‘lgan axborotni qidirar ekan, smartfon ekranida minglab o‘ziga jalb qiluvchi reklama va targ‘ibot ilovalari-ga duch keladi. Beixtiyor ularning qutuzisiga uchib, asosiy maqsad-muddaodan chalg‘iydi. Bizning jamiyatimizda ham shunday holat yuzaga keldiki, tobora kuchayib bo-rayotgan axborot asrida ba’zilar mensimay, barcha bosma mahsulotlar – gazeta, jurnallar va hatto kitoblar kerakmi, degan xulosa chiqarishga shoshilmoqdalr. Bunday qarash-larning bema’niligi, haqiqiy hayotdan juda uzoqligi haqida ko‘p to‘xtalib o‘tishga hojat yo‘q.

Shu o‘rinda barcha pedagoglarni bayram bilan qutlab, barchaga birdek manzur bo‘ladigan “Ma’rifat” gazetasi tahririyatiga o‘z minnatdorчилиgimni izhor etaman!

Sahifani Zilola MADATOVA tayyorladi.



YANVAR

Muammoning ildizi yoxud malakali mutaxassis orzusi (Normamat Eshonqulov, 4-yanvar)

Qancha o'qituvchi yuqori maosh olyapti? (Ulug'bek Po'latov, 4-yanvar)

Beshikdan qabrgacha madrasa bo'ldilar (Sharofat Hazratzoda, 4-yanvar)

Baxtiyor Mengliyev: "Har bir inson ilm qilish huquqiga ega" (Shohrux Abdurahim, 10-yanvar)

Milliy ta'lim: kecha yoxud ta'lim tizimidagi muammolar tarixiga nazar (Zavqibek Mahmudov, 10-yanvar)

Sinf rahbari (Erkinjon Yarashev, 10-yanvar)

O'quvchilarimdan olgan saboqlarim (Nilufar Ahmedova, 10-yanvar)

Musiqi darslarida "4K" modelini qo'llay olamizmi? (Abdurasul Rahimov, 10-yanvar)

Mehnatga yarasha rag'bat ham kerak yoxud ta'limning eng kerakli kishilari haqida (Dostonbek Sharipov, 17-yanvar)

Talaba uchun kundalik reja kerak(mi?) (Dilfuza Boboniyozova, 17-yanvar)

Maktab darsliklari og'irimi? (Mumtozbegim Abdumo'min, 17-yanvar)

Televideniyeining ayanchli ahvoli (Muxlisa Oripova, 17-yanvar)

"Qiziqmasa ham bo'ladigan kasb", muammoni kazus va keys-olimpiada (Muzaffar Abdutulipov, 17-yanvar)

O'qi, qizaloq, senga millat taqdirini ishindik! (Mohlaroyim Yo'doshxo'jayeva, 17-yanvar)

San'atga fidoyi insonlar qoldimi? (Zilolabonu Xoliqova, 17-yanvar)

Bizga yangicha ta'lim tizimi zarur (Botir Orifjonov, 24-yanvar)

Maktabgacha maktablarim (Gulshan Rahim, 24-yanvar)

Tamaddunlar to'qnashuvi (tasdiqlanmagan taxmin) (Xudoyberdi Komilov, 24-yanvar)

Mukammal ta'lim tizimini kutiib yashamoqdamiz (E'tiqodxon Otaqulova, 24-yanvar)

Hamkasbimga maktub (Guljahon Egamqulova, 24-yanvar)

Xalq dengizdir, xalq to'liqindir... yoxud kamalak jiloli oliygoh (Sharofat Hazratzoda, 25-yanvar)

34 yil investitsiya kutgan maktab... (Shahnoza Yangiboyeva, 31-yanvar)

Ta'limda Finlandiya tajribasi: ta'lim ustidan hech qanday komissiya tekshiruv o'tkaza olmaydi (Usmon Jo'rayev, 31-yanvar)

Ezgulik va matonatni raqqos o'rmonlardan o'rganing! (Yulduz Haydarova, 31-yanvar)

Bolalar musiqiy ta'limiga e'tibor qanday? (Ahmad Haydarov, 31-yanvar)

So'z va ibora teng emas (Mohinur Shodmonova, 31-yanvar)

Dars samaradorligi o'z qo'limizda (Sayyora Shodmonova, 31-yanvar)

FEVRAL

Mumtoz matnni moslashtirish (Baxtiyor Mengliyev, 7-fevral)

Abdurahmon Jomiyning kitobxonlik kechalari va Alisher Navoiy (Sherxon Qorayev, 7-fevral)

Ko'z haqida ko'zlaganim yoxud ul ne ko'zdurur-kim erur noz-u karashma jamidin... (Oqiljon Mavlonov, Hilolaxon Olimova, 7-fevral)

"So'zim martabasi avjdin quyi inmagay..." (Oqila To'raqulova, 7-fevral)

Jomiy va Bobur (Burobiya Rajabova, 7-fevral)

"Ruhim yaratib eding latofat birla..." (Xurshida Atavullayeva, 7-fevral)

Boqmag'ay tab' ahli nomavzun zari... (Maqsud Asadov, 7-fevral)

Asrlardan o'tgan qasrlar (Ahmadjon Meliboyev, 14-fevral)

Bilmaganini bilaman deyish ham odobdan emas (Usmon Jo'rayev, 14-fevral)

Ilmga ishtiyoq qanday uyg'onadi? (Xudoyberdi Komilov, 14-fevral)

Ustoz-murabbiylar qadri qonun asosida mustahkamlanadi (Buzrukxon Abrorov, 14-fevral)

“Marifat”

Bobur mirzo shaxsiyati va ijodi jadidlar nigohida (Yulduz Karimova, 14-fevral)

Quvkallaning Sobir bolasi (Olim Toshboyev, 21-fevral)

Inson ruhiyatini pokiza etuvchi asar (Nuriddin Tillayev, Jumanazar Kulonov, 21-fevral)

Umr – foni, so'z – boqiy (Nurboy Jabborov, 21-fevral)

"Xoldorxon" dostonining kompozitsiyasi haqida ayrim mulohazalar (Gulshan Rahim, 21-fevral)

Mahmud Sa'diy oshiq edi (Xolmuhammad Karimiy, 21-fevral)

"Qish qo'shig'in boshlar baralla..." (Xurram Rahimov, 21-fevral)

Bilig kimda bo'lsa, beduglik alur (Qosimjon Sodiqov, 21-fevral)

PISA natijalari atrofidagi o'ylar (Abduqahhor G'aniyev, 28-fevral)

Navoiy ijodiga o'quvchini qiziqтира olmaymizmi? (Mahliyo Jakbarova, 28-fevral)

Orzungni qanchaga sotasan?! (Sardor Tolliboyev, 28-fevral)

Erkinlik, quvnoqlik va ishonchga asoslangan ta'lim (Abdurahim Nosirov, 28-fevral)

MART

Tarbiya millat tanlamaydi (Pirnazar Davronov, 6-mart)

Ta'limda shakl ustunmi yoki mazmun? – 2 yoxud ta'lim mazmuni o'zgarmasa... (Normamat Eshonqulov, 6-mart)

O'qituvchilar oyligini oshirish mumkin! (Shohrux Abdurahim, 6-mart)

Navoiy qadamjolari ziyorati (Qosimjon Sodiqov, 6-mart)

Ona – asosiy motivator (Nilufar Saydaliyeva, 6-mart)

Zamonaviy telejurnalistikada etika muammolarining dolzarbligi (Yulduz Ortiqova, 6-mart)

Ona tilimizdagi joziba va grammatikadagi sxolastika (Zuhriddin Isomiddinov, 13-mart)

Ona tili ta'limida nimani qanday o'qitish kerak? (G'ofir Hamroyev, 13-mart)

Davlat tili rivoji harakatimizga bog'liq (Inomjon Azimov, 13-mart)

Lingvistik klinika (Baxtiyor Mengliyev, G'ofir Hamroyev, 13-mart)

Alifbo va imlo muammolari yechimi uchun tizimli tadqiqotlar zarur (Baxtiyor Mengliyev, 13-mart)

"Undov, taqlid va modal so'zlar mavzusini o'qitishda kognitiv pragmatik yondashuv (Umid Hamroyev, 13-mart)

Til mustaqilligi (Iroda Azimova, 13-mart)

Ona tilining jozibasi (G'ofir Hamroyev, 13-mart)

Asil ko'mchu so'zlarim (Elmurod Nishonov, 13-mart)

Noloyiq o'qituvchini vazir ishdan olsin: maktab o'qituvchilari malakasiga doir ayrim mulohazalar (Pirnazar Davronov, 20-mart)

Mamlakat taraqqiyoti o'qituvchilar qo'lida (Komil Sindorov, 20-mart)

Sa'diy, Navoiy, Koshifiy, Bobur izidan... (Burobiya Rajabova, 20-mart)

Garovga tikilgan hayot (Xudoyberdi Komilov, 20-mart)

Katta ishdan avval kichigini hal etaylik (Dildora Do'smatova, 27-mart)

G'irt to'qima nimarsa (Samariddin Yo'ldoshev, 27-mart)

Kitob ulashaylik, kitob o'qiylik (Zilolabonu Xoliqova, 27-mart)

APREL

"Ta'limda shakl ustuvormi yoki mazmun? – 3 yoxud davomat masalasi..." (Normamat Eshonqulov, 3-aprel)

"Saylovlar va siylovlar" (Xudoyberdi Komilov, 3-aprel)

"Kelingiz to'yib ovqatlansin – nabirangiz uchun..." (Bobur Niyo'zov, 3-aprel)

"Professional va oliy ta'limda keskin o'zgarishlar davri keldi" (Ravshan Xudoyberganov, 3-aprel)

Ikki front jangchilari (Davlatjon Mamatqulov, 3-aprel)

Diplomatik tabassum sohibi (Abdulla Ulug'ov, 3-aprel)

"Mahmudxo'ja Behbudiy – haqiqiy xodim ul-millat" (Dilafro'z Rahmatova, 3-aprel)

"Chalg'itish" (Fazliddin Abduraimov, 3-aprel)

"Badiiy asarlar qimmatini aniqlashda 80/20 tamoyili" (Kamola Saidova, 10-aprel)

"Navoiy" taxallusi imlosi va badiiy ma'no miqyoslari" (Nusratullo Jumaxo'ja, 10-aprel)

"Qoratosha til bitsa..." (Olim Toshboyev, 10-aprel)

"Ta'lim natijalariga ta'sir etuvchi omillar" (Shohrux Abdurahim, 24-aprel)

"Sobiq deputat fikriga qo'shilmayman" (Zavqibek Mahmudov, 24-aprel)

"Bolalar ombudsmani nega kerak?" (Feruza Miro'ktamova, 24-aprel)

Navoiymi yoki Navoiy? Asliyatga qaytish fursati (Xurram Rahimov, 24-aprel)

Dunyoga tinchlik kerak! (Xudoyberdi Komilov, 24-aprel)

MAY

"Sertifikat muammosi – 2 yoxud muammoning muammosi..." (Normamat Eshonqulov, 1-may)

"Uyg'unlik" (Fazliddin Abduraimov, 1-may)

"Manaviyatli bo'lish mas'uliyati osonmi?" (Usmon Jo'rayev, 1-may)

"Hazratimiz buyuk murabbiy edilar" (Sharofat Hazrat qizi, 1-may)

Kitob hayotining mazmuni edi (Rizo Xudoyqulov, Oyshirin Xudoyqulova, 1-may)

"Ergash Jumanbulbul o'g'li el kezadi" (O'ljaboy Qarshiboy, 1-may)

"G'alaba haqiqati" (Xudoyberdi Komilov, 1-may)

"Pafos" (Salomat Eshimbetova, 8-may)

"Vatanimizning eng kekxa muallimi" (Shahriyor Xolboyev, 8-may)

"Toshga naqshlangan bolalik" (Abror Asrorov, 8-may)

"Umlar bo'ladiki, mangu'likka tirikdir" (Boy-mat Qo'chqorov, 8-may)

"Qiziltepada taralgan yog'du" (O'rolboy Qobil, 8-may)

"Yoqubning jasorati" (Abdulla Ulug'ov, 8-may)

"Grammatika ikkinchi darajali emas" (G'ofir Hamroyev, 15-may)

"O'zbek tilida xorijiy so'zlar" (Sultonmurod Olim, 15-may)

"Siz nima deysiz? Tilshunoslikdagi ajabtovur ishlar" (Mahmuda Valiyeva, 15-may)

"So'z ichida so'z" yoxud "O'zbekiston" dagi 250 "bahodir" (Latif Qambarov, 15-may)

"Stakanmi yoki tustag'on" (Baxtiyor Abdu-shukurov, 15-may)

"Tog'a" (Abduvohid Hayit, 15-may)

"Ikki yonli ma'noli so'zlar" (Umid Ko'chimov, 15-may)

"Open budjet – 3: tizimdagi yangilik yoxud maktablar imkoniyati yanada cheklandi(mi?)" (Normamat Eshonqulov, 22-may)

"Mushtariy Madrahimova: Oksford orzu edi" (Azim Axtamov, 22-may)

Vazirlar Mahkamasi qarori bajarilmayapti (Zavqibek Mahmudov, 22-may)

"Matematika faqatgina qat'iy qoidalar to'plami emas" (Shahnoza Sotvoldiyeva, 22-may)

"Qadim Chag'oniyon va navqiron Denov" (Bobur Jumayev, 22-may)

2024 mundarijasi

“Oq yo‘l, aziz bitiruvchi” (Guloro Yusupova, 22-may)

“Ahvolimiz...” (Tursunoy Eshmatova, 29-may)

“17 yoshli Ozodaxon – “Women in nuclear”ning dunyo bo‘yicha eng yosh olimasi” (Muxlisaxon Odilova, 29-may)

“Jurnalist manekendan farqli bo‘lishi kerak!” (Pokiza Mahmudova, 29-may)

“O‘qituvchi ham fikr bildirishga haqli” (Sarvinnoz Abduvaliyeva, 29-may)

“Kishiki istasakim, yetmagay malolat anga” (Rayhonoy Yangiboyeva, 29-may)

“Ota-onam meni tushunmaydi” (Hilola Odilova, 29-may)

“O‘rni yo‘qolayotgan o‘rnak” (Sevara Eshonqulova, 29-may)

“Yaxshi kitoblar targ‘iboti sust(mi?)” (Dilnoza Umaraliyeva, 29-may)

IYUN

“Sehrli tayoqchani izlab...” (Xudoyberdi Komilov, 5-iyun)

““4K” modeli asosida yaratilgan darsliklar” (Guljahon Jumanazarova, 5-iyun)

“Besh barmoq” (Hakim Sattoriy, 5-iyun)

“Test ishlash texnologiyalari yoxud “Matematik tenglik” usuli” (Normamat Eshonqulov, 5-iyun)

“Xotiraga aylangan “xotira”lar” (Nazira Boymurodova, 5-iyun)

“Karikatura va hayot” (Nazokat Zaylobova, 5-iyun)

“Taqqir zarbasi – tuhfa” (Umid Ali, 5-iyun)

““Chig‘atoy gurungi” va Navoiy” (Gulshan Rahim, 12-iyun)

“Sobir Abdulla ustozini xotirlaydi” (Azimjon Davronov, 12-iyun)

“O‘ylar so‘zlardadir” (Manzura Mo‘minova, 12-iyun)

“Abadiy nur” yoki “Mehvardagi yulduz nur sochaverardi” (Umida Egamberdiyeva, 12-iyun)

“Alisher Navoiy Samarqandga ustoz izlab borganmidi?” (Sherxon Qorayev, 12-iyun)

Muhammad Yusuf haqida bilganlarimdan ayrimlari (Abdurahmon Pirimqulov, 12-iyun)

Nigohida quyosh kulardi (Otashin shoir, benazir tarjimon va qalbi daryo murabbiy Tilak Jo‘rani eslab) (Muhiddin Omon, 12-iyun)

“Kechir, Sadoqat...” (Bayram Ali, 12-iyun)

“Mavridi bilan...” (Xurshid Do‘stmuhammad, 12-iyun)

“Boburni yig‘latgan qovun Andijondan keltirilganmidi?” (Husan Karvonli, 12-iyun)

“Qullik sarhadlarida yoxud musiqaning halokatlil og‘ushida” (Normamat Eshonqulov, 19-iyun)

“Farzandimga maktub” (Mumtoza Xanberdiyeva, 19-iyun)

“Maktab muallimlarini kasbiga sodiqlik bilan ishlatish mexanizmi” (Pirnazar Davronov, 19-iyun)

“Tilak Jo‘ra uy-muzeyi kimga kerak?” (Tillaniso Nur, 19-iyun)

“Boburnoma” – muazzam asar” (Xurshida Atavullayeva, 19-iyun)

Ilm va ijodga payvasta umr (Abdulla Ulug‘ov, 19-iyun)

Ilm yo‘li mashaqqatlari (Mansurxon Toirov, 19-iyun)

O‘zbek tili taraqqiyotida sharq tillarining o‘rni (Farangiz Abdurahmonova, 26-iyun)

“O‘zbek lingvistik sanoati istiqbollari” (Baxtiyor Mengliyev, 26-iyun)

Himoyachi jigar (Dilorom Matkarimova, 26-iyun)

“Buyuk shoirning taxallusi haqida” (Berdak Yusuf, 26-iyun)

“O‘g‘irlangan insho” (Gulchehra Ashurova, 26-iyun)

“Bizga o‘zbek tilida kitob bering” (Mashhura Abduraimova, 26-iyun)

“Pitpildiq, pitpildiq, kulchatoyini ko‘p qildik...” (Gulchehra Xoliqova, Dostonbek Abdurahmonov, 26-iyun)

“Q” tovushi va “Qq” harfini mustahkamlash (Zarina Davronova, 26-iyun)

“O‘zbek kompyuter lingvistikasi yalovbardori” (Manzura Abjalova, 26-iyun)

“Asil ko‘mchi so‘zlarim” (Elmurod Nishonov, 29-iyun)

IYUL

Kreativ fikrlash: O‘zbekiston o‘quvchilarining xalqaro PISA – 2022 tadqiqotidagi natijalari (Furqat Xolmirzayev, 3-iyul)

“Qullik sarhadlarida – 2 yoxud seriallar iskanjasida” (Normamat Eshonqulov, 3-iyul)

“Guldona Karimova terma jamoadan nega chetlatildi?” (Husan Karvonli, 3-iyul)

“O‘qimagan qizlar” (Hilola Mamajonova, 3-iyul)

“Qo‘qon xoni Xudoyorxonning jadid farzandlari tarixi” (Sherxon Qorayev, 3-iyul)

“Tashabbuskor va novator” (Hasan Abulqosimov, 3-iyul)

Repetitorlik finishga yetib keldi (Musajon Karimov, 3-iyul)

“Plus va minus” (Mashhura Burhonova, 3-iyul)

Muallim kamolot ichra ko‘zgudir (Ravshan Jomonov, 3-iyul)

Texnologiya fani tarkibida robototexnika kerak(mi) (Hafiza Rashidova, 10-iyul)

“Ta’lim rivoji: jadidlar tajribasi biz uchun dasturulamal bo‘lsa...” (Bahodir Yo‘ldoshev, 10-iyul)

Mutaxassislar malakasini oshirishda xorijiy tajribalarning ahamiyati (Finlandiya ta’limining siri nimada?!) (G‘ofir Hamroyev, 10-iyul)

“Taraqqiyot va tanazzul chegarasi – 2 yoxud o‘xshamagan tajriba” (Normamat Eshonqulov, 10-iyul)

Abdurahmon Jomiy va Mutribiy Samarqandiy (Burobiya Rajabova, 10-iyul)

“Olim qadri – olam qadri yoxud katta shatranj o‘yini” (Xudoyberdi Komilov, 10-iyul)

“Shahar va qishloq orasi” (Elyor Haydar, 10-iyul)

Qoidani yodlash emas, yaratishga o‘rgatamiz (Manzura Karimova, 10-iyul)

O‘qituvchi maqomi haqidagi qonun hujjatlarini o‘qib... (Iqboloy Ummatova, 17-iyul)

Ish yarmakasidan talabaga nima foyda? (Dilnoza Sapayeva, 17-iyul)

“Ijodiy imtihan yakunlari (yoxud ta’limdagi muammolarimiz)” (Yulduz Ortiqova, 17-iyul)

O‘qituvchilar aybdormi? (Malika Rahmonova, 17-iyul)

Amaliyot: ustozlikni his etgan kunim (Umida Elbekova, 17-iyul)

“Adolat himoyachisi bo‘lishni istaganlar adolatsiz qolmoqda” (Guloro Yusupova, 24-iyul)

“Millatning ma’naviy qiyofasi” (2-maqola) (Usmon Jo‘rayev, 24-iyul)

Eng mashhur o‘zbekshunos olim (Maftuna Karimova, 24-iyul)

90 yoshli kitobxon (Sharifjon Ahmad, 24-iyul)

“Qullik sarhadlarida – 3 yoxud gastarbayerlik jodusi” (Normamat Eshonqulov, 31-iyul)

“Keksa o‘zbek nidolari” (Bahodir Kamolov, 31-iyul)

Tramp fenomeni (Xudoyberdi Komilov, 24-iyul)

“Uyg‘ongan ajdaho” (Xudoyberdi Komilov, 24-iyul)

O‘quvchilarni partaga mixlab qo‘ymang! (Surayyo Murodova, 31-iyul)

Ruhimizni oziqlantiruvchi manba (Habib Siddiq, 31-iyul)

Daraxt bir yerda ko‘karadi (Boqijon To‘xliyev, 31-iyul)

“Buvisining qizi” (Husan Karvonli, 31-iyul)



AVGUST



“Lison ut-tayr”ning yangi talqini (Baxtiyor Mengliyev tabdiliga so‘ngso‘z) (Vahob Rahmonov, 7-avgust)

“Taxallus va imlo” (Shamsuddin Shukurov, 7-avgust)

“Tirik inson haqida yozish ancha mushkul...” (Gulasal Kazakova, 7-avgust)

O‘zbek dostonlarida homiy momolar obrazi (Gulshan Rahim, 7-avgust)

Suyukli nabiraning ayanchli qismati (Sherxon Qorayev, 7-avgust)

Samarqandga ijod maktabi kerak! (Husan Karvonli, 7-avgust)

Bir armon iztirobi (O‘rolboy Qobil, 7-avgust)

Vijdoningga ta’zim qil! (Ustoz ijodkor Farmon Toshev shaxsiyatiga chizgilar) (Muhabbat To‘xtasheva, 7-avgust)

Tanasi boshqa – dard bilgan shoir (Mahbuba Abdurahimova, 7-avgust)

“Asarlarim – hayotimning bir bo‘lagi, unda el qayg‘usiga qorishgan armonlarim va el orzusiga esh bo‘lgan maqsadlarim bor (Yozuvchi Xoliyor Safarov bilan suhbat)” (Hulkar Farmon qizi, 7-avgust)

“Beshbarmoq – 2” “Maktab hayoti” turkumidan (Hakim Sattoriy, 14-avgust)

“Arifmetik va geometrik progressiyalar mavzusiga doir tarixiy masalalar va tarixiy ma’lumotlar” (Shohrux Ochilov, 14-avgust)

Kreativ fikrlashga doir metodikalar (Nilufar Saydaliyeva, 14-avgust)

“Ikki qismli kundalik” (Nazokat Avvalova, 14-avgust)

“Qullik sarhadlarida – 4 yoxud suratbozlik vasvasasi” (Normamat Eshonqulov, 21-avgust)

“Adolatli dars taqsimoti qanday bo‘lishi kerak?” (Shahnoza Yangiboyeva, 21-avgust)

Iqtibos keltirishni unutmang! (Yulduz Zohidova, 21-avgust)

Najotimiz ta’limda (Zavqibek Mahmudov, 21-avgust)

Yosh rahbarlarga eslatmalar (Sanobar Xo‘jamurodova, 21-avgust)

“Navoiyning shaxsiy kutubxonasi haqida” (Burobiya Rajabova, 21-avgust)

“Omonat dunyoning omonatlari” (Xudoyberdi Komilov, 21-avgust)

Yetti donishmandning biri (Fotima Hasanova, 21-avgust)

“Tarix fanini o‘qitishga qo‘yiladigan bugungi talablar” (Usmon Jo‘rayev, 28-avgust)

Olis-olislardagi orzular (O‘ljaboy Qarshiyev, 28-avgust)

Buxoro-Samarqand musiqa uslubi haqida tushuncha (sozanda san‘ati) (Abdurasul Rahimov, 28-avgust)

Darslar qiziqarli o‘tsin desangiz... (Hilola Mamajonova, 28-avgust)



SENTABR



Qullik sarhadlarida – 5 yoxud internetning turfa qurbonlari (Normamat Eshonqulov, 4-sentabr)

Pedagog emas, fasilitator bo‘lish kerak (Akbar Yorbozorov, 4-sentabr)

Zamonaviy darslik va qo‘llanmalar qanday bo‘lishi kerak? (Sherzod Fozilov, 4-sentabr)

Urgutliklar (tarixiy hujjatli kichik qissa) (Xudoyberdi Komilov, 4-sentabr)

Vaymardan maktub! (Marhabo Sattorova, 4-sentabr)

Shaharda nimadir bor edi (Sherzod Komil Xalil, 4-sentabr)

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga murojaat (Zafar Mo‘minov, 11-sentabr)

Pedagogika mazmun mukammalligiga mas’ul yoxud soxta pedagogik falsafadan saqlanish (Qayum Boymirov, 11-sentabr)

Davomi 12-betda.)



“Marifat” – 2024 mundarijasi



Davomi. Boshi 10-, 11-betlarda.)

Yangi maqsadlar va marralar sari (Doniyor O'rolov, 11-sentabr)

Eng yangi avlod darsliklarini yaratish masalalari (Qunduzxon Husanboyeva, 11-sentabr)

Ma'naviyat daraxtining o'q ildizi (Dilobar Jo'rayeva, 11-sentabr)

Imom Buxoriy va Alisher Navoiy (Burobiya Rajabova, 11-sentabr)

Sun'iy intellekt – texnologik rivojlanishning asosi sifatida (To'lqin Qodirov, 11-sentabr)

Jahonning birinchi ledisi (Mansurxon Toirov, 11-sentabr)

Shunaqa gaplar (Hilola Mamajonova, 11-sentabr)

Ming so'm (Qurdosh Odinayev, 11-sentabr)

Attestatsiya yaqinlashmoqda: bahorgi jarayonlar qanday o'tgan edi? (Guloro Yusupova, 18-sentabr)

Urush, sog'inch va Ota... (Mohidil Nizomova, 18-sentabr)

Madaniyatshunoslik o'qitilishi kerak (Alisher Shukurov, 18-sentabr)

Fikrning yuksakdagi tajassumi (Tillaniso Nuryog'di, 18-sentabr)

Qo'qon xoni Muhammad Alixonning fuzuliyxonlik kechalari tarixi (Sherxon Qorayev, 18-sentabr)

Jahon chempionlarining murabbiysi: “Kattalarning qadami yoshlarga yo'l ochadi” (Zilola Madatova, 18-sentabr)

Urush, noming o'chsin jahondan! (Xudoyberdi Komilov, 18-sentabr)

Ko'ngling ko'nglim himoyasida (Umid Ali, 25-sentabr)

Ko'k choy (Musurmon Sodiqov, 25-sentabr)

“Qotro' chu” qissasi (Salomat Eshimbetova, 25-sentabr)

Ko'rgilik (Zafar Mo'minov, 25-sentabr)

Zambilg'altak (Xudoyberdi Komilov, 25-sentabr)

Ehtiyot bo'ling, sirpanchiq (Dostonbek Sharipov, 25-sentabr)

G'alati o'ch (Nazokat Zaylobova, 25-sentabr)



OKTABR



O'qituvchilar haqida haqiqatlar (Erkinjon Yarashev, 1-oktabr)

“O'quvchining haqqiga xiyonat qilmang!” (Shahnoza Yangiboyeva, 1-oktabr)

So'z sehri (O'rolboy Qobil, 1-oktabr)

Bitta oldingi dars bilan qutulmaslik... (Eldor Asanov, 1-oktabr)

Taklim: bolalar baholanmasin! (Erkinjon Yarashev, 9-oktabr)

Ta'lim – sistema: bir elementi ishlamasa, u ishlashdan to'xtaydi (Baxtiyor Mengliyev, 9-oktabr)

Yotoqxon orzusi: talabaning kutilmagan qiyinchiliklari (Shodiyona Xushmurodova, 9-oktabr)

Mening ustozim (Jasur Kamolov, 9-oktabr)

Jabbor O'sarov: Fan-texnika taraqqiyoti asosida ham pedagogika yotadi (G'iyos O'nar, 9-oktabr)

Toshkent, Toshkent! (O'ktam Mirzayor, 9-, 16-oktabr)

Bo'lajak jurnalistning vijdoni uchun ham baho qo'yan ustoz (Maftuna Karimova, 9-oktabr)

Bizga aniq mezonlarga asoslangan baholash tizimi zarur edi! (Dilrabo Davidova, 16-oktabr)

O'qituvchilar malakasi eng zamonaviy sharoitlarda oshiriladi (Zilola Madatova, 16-oktabr)

Bolalarning ezgu orzulari yoxud fizika fanining kelajak avlod uchun ahamiyati haqida (Abduqahhor G'aniyev, 16-oktabr)

Baholar qator-qator... (Fazliddin Abduraimov, 16-oktabr)

Sehrlil diyorning sirlari (Xudoyberdi Komilov, 16-oktabr)

Zamonaning fidoyi olimi (Hamidulla Boltaboyev, 16-oktabr)

Ona tili ta'limi: yutuqlar, muammolar, yechimlar (Baxtiyor Mengliyev, 23-oktabr)

“O” va “A” unilari qiyosi haqida (Tursunali Jumayev, 23-oktabr)

Poygakda qolib ketayotgan ona tilimiz (Gavhar Usmonova, 23-oktabr)

O'zbek me'yoriy lug'atchiligi yoxud lug'at qonunchiligi muammolariga doir (Bashorat Bahridinova, 23-oktabr)

So'z ichida yonma-yon kelgan bir xil undoshlar (Yulduz Bozorova, 23-oktabr)

O'zbekim, tilingdagi xotirani o'ldirmagil! (Dilorom Yo'ldosheva, 23-oktabr)

Turkona harbiy istilohlar so'zligi (Baxtiyor Abdushukurov, Sulton Normamatov, 23-oktabr)

Millatimiz nomini to'g'ri yoza olamizmi? (Ravshan Jomonov, 23-oktabr)

“Mutribo, bir iltimosim – o'zbekona kuylagin” (Mohirbek Qo'chqorov, 23-oktabr)

Davlat tili maqomini mustahkamlash omillari (Rahimboy Jumaniyozov, 23-oktabr)

“O'zbek tili – mening tilim” (Usmon Jo'rayev, 23-oktabr)

Tinish belgilari (Umid Ali, 23-oktabr)

“O'qituvchi bo'laman, lekin boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi emas...” (Zafar Mo'minov, 30-oktabr)

Xo'jalik mudiri ekanimdan faxrlanaman! Yoxud shu maoshga roziman! (Dostonbek Sharipov, 30-oktabr)

Xalqaro reytinglarda yetakchi Kanada ta'lim tizimi siri nimada? (Charos Nizomiddinova, 30-oktabr)

O'qituvchiga munosabatimiz ijobiy o'zgarishi kerak (Abdug'ofir Sherxolov, 30-oktabr)

Militsionerlarga ham oson emas (Salomat Eshimbetova, 30-oktabr)

Bolalikni o'g'irlamang! (Hilola Mamajonova, 30-oktabr)

Olimlik va odamiylik saodati (Sulton Normamatov, 30-oktabr)



NOYABR



Hamma sog'inadigan Soykechar (O'ljaboy Qarshiyev, 6-noyabr)

Savodxonlik va ta'lim (Qurdosh Odinayev, 6-noyabr)

“Mezonlarga asoslangan baholash tizimi”... mezonlarga asoslanganmi? (Komil Jalilov, 6-noyabr)

“Kichik qishlog'imizning katta ziyolilari” (Irodaxon Shodiyeva, 6-noyabr)

Mo'g'ullarning “afsonaviy yengilmasligi” haqida qarashlarni yo'qqa chiqargan janglar (Akbar Zamonov, 6-noyabr)

Til o'rganishda mutafakkirlarimiz ibratini (Vasila Mamadayupova, 6-noyabr)

So'zdagi sehr va dildagi mehr (Rahimboy Jumaniyozov, 6-noyabr)

Yagona Turkiston orzusi (Xudoyberdi Komilov, 6-noyabr)

Navoiy qo'llagan so'z va tasvirli ifoda xususida (Boburiya Rajabova, 13-noyabr)

Bir bayt balog'ati yoxud bir g'azalga o'n taxmis (Abdurahmon Pirimqulov, 13-noyabr)

Mashrab qachon tug'ilgan? (Erkin Musurmonov, 13-noyabr)

Navoiy toshbosma devoni kotiblari: Shohmurod kotib (Gulshan Rahim, 13-noyabr)

She'rni xo'b tanir zavq bila... (Akbar Zamonov, 13-noyabr)

Shahrisabz-u Samarqand farzandi (Zebiniso Xurramova, 13-noyabr)

Tilsim qa'ridagi ovoz (Temirpo'lat Tillayev, 13-noyabr)

Munojot yoxud orzumand ko'ngil nolasi (Abdunabi Hamro, 13-noyabr)

Umumiy ta'limda baholash va ichki monitoring: muammolar, yechimlar va istiqbollar (Shohrux Abdurahim, 20-noyabr)

Sinfimga maktub (Gulnora Safarova, 20-noyabr)

Bizni kemirguvchi illatlar (Inomjon Azimov, 20-noyabr)

Birinchi muallimning sehrlil qo'shig'i (Halim Sayid, 20-noyabr)

Qiyomatga qolmagan qarz yoxud qirq yilda qaytgan kitoblari (Dilobar Jo'rayeva, 20-noyabr)

“Kim ko'p so'z biladi?” (Nargiza Sheraliyeva, 20-noyabr)

Samarqandlik fiziklar sardori (Solijon Sirojev, Rustam Rajabov, To'ychiboy Toshboyev, 20-noyabr)

Turkiy shaxmat: Oltay shatrasi (Anvar Bo'ronov, 20-noyabr)

AQSH: demokratiyadan trampokratiyaga (Xudoyberdi Komilov, 20-noyabr)

Non shahri – muammolar shahri(mi?) (Husnidin G'ulomjonov, 27-noyabr)

Internetsiz olam (Mushtariy Qudratova, 27-noyabr)

Qo'rquvga tik boq – qo'rqma! (Dildora Do'smatova, 27-noyabr)

Chekinmang – chegaragacha (Diyor Rahmon, 27-noyabr)



DEKABR



Robot fikrlay oladimi? Yoxud fizikadan 2024-yilgi Nobel mukofoti neyroto'r kashfiyotchilariga berilgani haqida (Abduqahhor G'aniyev, 4-dekabr)

Zamonaviy kasblarning yangicha ko'rinishlari (Sardor Qalandarov, 4-dekabr)

MTT – ta'limning poydevori (Shodiyona Xushmurodova, 4-dekabr)

Samarqanddagi kichik Fransiya (Ulash Boboyev, 4-oktabr)

Jamiyatni yagona maqsad yo'lida birlashtiruvchi ma'naviy qudrat (Usmon Jo'rayev, 4-dekabr)

Tabiatning tabiati nozik (Xudoyberdi Komilov, 4-dekabr)

Nurobod ham qadimiy maskan (Xolmurod Soriyev, Ilhomjon Botirov, 4-dekabr)

Tadbirning ixtiyoriy ishtirokchilari (Fazliddin Abduraimov, 11-dekabr)

Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari bilan XXI asr ta'limining uyg'unligi (Buxolida So'piyeva, 11-dekabr)

Ommaviy ravishda ishdan bo'shatish mezonlari belgilanmoqda. Maqsad nima? (Fariza Rustamova, 11-dekabr)

Kubro jasorati: yolg'on va haqiqat (Nuriddin Egamov, 11-dekabr)

Ishtirokchi sahnani o'ziniki qilib olsin! (Azim Davron, 11-dekabr)

O'qituvchi dangasami yoki?.. (Zafar Mo'minov, 11-dekabr)

“Nasaf”ning qamashilik “Ajdari” (Sharifjon Ahmad, 11-oktabr)

“Zamin darg'asi” yoxud bir asar tarixi (Xudoyberdi Komilov, 11-dekabr)

Sun'iy intellekt: tilshunoslar endi nima qiladi? (Baxtiyor Mengliyev, Shahlo Hamroyeva, 18-dekabr)

Professor qizlarning professor otasi yoki ma'rifatga baxshida umr (Saodat Musayeva, 18-dekabr)

Frazeologik evfemalar – nutq ko'rki (Sirojiddin Turdimurodov, 18-dekabr)

Hamma o'qiyapti. O'qing! Qaysi kitobni o'qiyapsiz? (Ikrom Bo'riboyev, 18-dekabr)



Tangriyev Alisher Jumanazarovichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha “O‘quv-mashg‘ulot guruh yakkakurashchilarida harakat ko‘nikmalarini shakllantirishning biomexanik xususiyatlari” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 18-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Pulatova Rayxon Saidumarovnaning 14.00.21 – Stomatologiya ixtisosligi bo‘yicha “OIV infitsirlangan bemorlarda kompleks stomatologik yordamni takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/05.06.2020.Tib.102.02 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 28-dekabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tdi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko‘chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektor@sammi.uz

Zufarova Zuxra Xabibullayevnaning 15.00.01 – Dori texnologiyasi ixtisosligi bo‘yicha “Yallig‘lanishga qarshi ta’sirga ega dori shakllari texnologiyasini ishlab chiqishning va muvofiqlashtirishning texnologik aspektlari” mavzusidagi(farmatsevtika fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent farmatsevtika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Far.32.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 8-yanvar kuni soat 12:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Oybek ko‘chasi, 45-uy.
Tel/faks: (71) 256-37-38; e-mail: info@pharmi.uz

Kdirbayeva Guln Utebayevnaning 06.01.10 – Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi ixtisosligi bo‘yicha “Qishloq xo‘jaligi ixtisoslashtiruvini takomillashtirish natijasida yerdan foydalanish samaradorligini oshirish (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)” mavzusidagi(qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/07.06.2024.Qx.13.03 raqamli ilmiy kengashi asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 17-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60; e-mail: tdau@exat.uz, tuag_info@edu.uz

Mirzaraximova Kamola Rixsiyevnaning 14.00.23 – Hamshiralik ishini tashkil etish ixtisosligi bo‘yicha “Bolalarda tug‘ma anomaliyalarning tarqalganligi, xavf omillari va ularning oldini olishda patronaj hamshirasining roli (Toshkent shahri misolida)” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 23-yanvar kuni soat 13:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog‘ishamol ko‘chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: mail@tashpmi.uz

Normatov Shovkat Ibragimovichning 05.09.02 – Geotexnika (Asoslar, poydevorlar va yerosti inshootlari. Gruntlar va tog‘ jinslari mexanikasi) ixtisosligi bo‘yicha “Bir jinsli bo‘lgan gruntli qiyaliklar ustuvorligini muhandislik yondashuvining turli usullarida baholash tahlili” mavzusidagi(texnika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademik M.T.O‘rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.08.2022.T.61.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 11-yanvar kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 40-uy.
Tel/faks: (71) 233-68-47; e-mail: instmech@academy.uz

Xolmatov Bobir Tashpo‘latovichning 06.01.03 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika ixtisosligi bo‘yicha “Kuchsiz sho‘rlangan o‘tloqi-bo‘z tuproqlarning agrofizikaviy xossalari qo‘llanilgan agroteknologiyalar ta’sirida o‘zgarishi (Jizzax viloyati Paxtakor tumani misolida)” mavzusidagi(qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/07.06.2024.Qx.13.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 10-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

Yaxyoyeva Hilola Sharifovnaning 14.00.02 – Morfologiya hamda 14.00.03 – Endokrinologiya ixtisosliklari bo‘yicha “Koronavirus infeksiyasini o‘tkazgan shaxslarda qalqonsimon bez faoliyatining morfofunktsional va ultratovushli anatomiyasining o‘ziga xos xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/29.02.2024.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 9-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G‘ijduvon ko‘chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, (95) 911-00-50; e-mail: info@buxmi.uz, buxmi@mail.ru

Raximov Xurmat Nurmatovichning 06.01.04 – Agrokimyo ixtisosligi bo‘yicha “Sug‘oriladigan tuproqlarning GAT texnologiyalari asosida agrokimyoviy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va o‘g‘itlardan samarali foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish ilmiy asoslari (Xorazm viloyati Shovot tumani misolida)” mavzusidagi (qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/07.06.2024.Qx.13.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 18-yanvar kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.

Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;

sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

Allanazarov Olimjon Yaxshiboyevichning 06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish ixtisosligi bo‘yicha “Poliz qo‘ng‘izi(Epilachna Chrysomelina Fabr.) ning bioekologik xususiyatlarini o‘rganish va unga qarshi kurash choralarini takomillashtirish” mavzusidagi(qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agroteknologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 7-yanvar kuni soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tdi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani,

Botanika MFY, O‘zPITI ko‘chasi, PSUEAITI.

Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

Fayzillayeva Gulnora Ibragimovnaning 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo‘yicha “Eksperimental o‘pka fibrozida oshqozon morfometrik ko‘rsatkichlarining qiyosiy tavsifi” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/29.02.2024.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 9-yanvar kuni soat 12:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G‘ijduvon ko‘chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, (95) 911-00-50;

e-mail: info@buxmi.uz, buxmi@mail.ru

Kaypnazarov Jandos Jumambetovichning 06.01.04 – Agrokimyo ixtisosligi bo‘yicha “Sug‘oriladigan tuproqlarning agrokimyoviy xossalari va kuzgi bug‘doy hosildorligiga chiqindi, qoldiqlarning ta’siri(Navoii viloyati sug‘oriladigan surtusli qo‘ng‘ir-o‘tloqi va o‘tloqi tuproqlar misolida)” mavzusidagi(qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/07.06.2024.Qx.13.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 18-yanvar kuni soat 12:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.

Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;

sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

Kambarov Davronbek Saytboyevichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha “OTM talaba qizlarida harakat yetishmovchiligini gandalbol mashg‘ulotlari orqali to‘ldirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 11-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy.

Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76;

e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Sheraliyev Jamshid Shuhrat o‘g‘lining 06.01.06 – Sabzavotchilik ixtisosligi bo‘yicha “Bosh salatning(Lactuca sativa var.capitata L.) nav va F1 duragaylarini tanlash hamda yetishtirish texnologiyasining elementlarini takomillashtirish” mavzusidagi(qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.09.2022.Qx.152.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 3-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tdi.

Manzil: Toshkent viloyati, 111106, Toshkent tumani, Ko‘ksaroy avto bekati.

Tel/faks: (78) 226-85-03, 226-85-03;

e-mail: savzavot_info@umail.uz

Napasov Ilxomjon Zubaydulloyevichning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosligi bo‘yicha “Naysimon suyaklar yopiq sinishlarida suyak regeneratsiyasi buzilishlari istiqbolini belgilashning immunologik jihatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019. Tib.50.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 20-yanvar kuni soat 15:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G‘ulomov ko‘chasi, 74-uy.

Tel/faks: (71) 207-08-30;

e-mail: immunologiy@akademy.uz; web-sayt: www. immunologiya.uz



Alimova Shahnoza Azamat qizining 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo'yicha “Energetik ichimlik ta'sirida buyrakning morfo-funksional o'zgarishlarini tajribada o'rganish va profilaktik chora-tadbirlarni qo'llash” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/29.02.2024.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 15-yanvar kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, (95) 911-00-50; e-mail: info@buxmi.uz, buxmi@mail.ru

Rustamova Nigina Baxshilloevnaning 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo'yicha “Bolalikning I-II davridagi chapaqay va o'naqay bolalarning antropometrik ko'rsatkichlarining qiyosiy xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/29.02.2024.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 15-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, (95) 911-00-50; e-mail: info@buxmi.uz, buxmi@mail.ru

Pirmatov Oybek Zenetovichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Yosh futbolchilarning hujumdagi texnik-taktik tayyorgarligini oshirish uslubi” mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 18-yanvar kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko'chasi, 15-uy.

Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Majitov Jo'rabek Altiboyevichning 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari ixtisosligi bo'yicha “Kichik quvvatli biogaz qurilmasining issiqlik-texnik parametrlarini asoslash” mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.09.2020.T.111.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 18-yanvar kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy.

Tel/faks: (75) 224-02-89, 224-13-95; e-mail: kiei_info@edu.uz

Mustayev Ruslan Aktamovichning 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari ixtisosligi bo'yicha “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ta'minlanuvchi elektr uskunar uchun kontaktiz qurilmalarini ishlab chiqish va tadqiq qilish” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.09.2020.T.111.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 18-yanvar kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy.

Tel/faks: (75) 224-02-89, 224-13-95; e-mail: kiei_info@edu.uz

Baxriyeva Zebuniso Djalilovnaning 14.00.10 – Yuqumli kasalliklar ixtisosligi bo'yicha “Salmonella turiga va klinik ko'rinishlariga bog'liq tarzda antimikrob preparatlarini ratsional qo'llash” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/29.02.2024.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 23-yanvar kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, (95) 911-00-50; e-mail: info@buxmi.uz, buxmi@mail.ru

Azimova Kamola Talatovnaning 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo'yicha “Bolalarda o'tkir bronxiolitlarda qaytalanuvchi bronxoobstruktiv holatlarning personifitsirlangan diagnostikasi va rivojlanish xavfi stratifikatsiyasini takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.102.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 10-yanvar kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.

Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektor@sammi.uz

Fazilova Maxshura Olimjanovnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha “Rivojlanmagan homiladorlikdan keyin prekonsepsion tayyorgarlikni optimallashtirish” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.102.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 10-yanvar kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.

Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektor@sammi.uz

Ro'ziyeva Muhayyo Erkinovnaning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha “Talabalarda sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish” mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 15-yanvar kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.

Tel/faks: (61) 229-40-75, 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz

Yusupjonov Otabek G'ayibjonovichning 11.00.06 – Geodeziya. Kartografiya ixtisosligi bo'yicha “Yirik shaharlar geodezik tarmog'ini sun'iy yo'ldosh kuzatishlaridan foydalanib qayta qurishning nazariy-amaliy masalalari (Toshkent shahri misolida)” mavzusidagi (geografiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Gr.01.06 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 7-yanvar kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24;

e-mail: ik.geografiya.nuuz@mail.ru

Abduazimov Sabirjon Utkurovichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarni jismoniy va harbiy-amaliy tayyorgarligini takomillashtirish” (Совершенство физической и военно-прикладной подготовленности курсантов в высших военных учреждениях) mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 4-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.

Tel/faks: (70) 717-27-27, 717-17-76;

veb-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz, e-xat: jtsu@exat.uz

Jumayeva Malohat Mustaqimovnaning 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo'yicha “Xolesistit kasalligida o't pufagi devorlarining gistokimyoviy o'zgarishini o'rganish” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/29.02.2024.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 17-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50; e-mail: info@buxmi.uz, buxmi@mail.ru

Saidova Nozima Axrorovnaning 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha “XX-XXI asr ingliz bolalar adabiyotida fentezi janrining mifopoetik xususiyatlari” mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 8-yanvar kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,

Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-“a” uy.

Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uszwlu_info@mail.ru

Aliyev Hamidullo Rasulovichning 14.00.21 – Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha “Bolalarda malyar tishlar yo'qotilishi oqibatida kelib chiqadigan deformatsiyalarni davolash va profilaktikasini takomillashtirish” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/05.06.2020.Tib.102.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 11-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.

Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektor@sammi.uz

Qosimov Rayim Erkinovichning 14.00.08 – Oftalmologiya ixtisosligi bo'yicha “Bolalarda g'ilyalikni jarrohlik yo'li bilan davolash samaradorlik omillarini tahlil qilish va uni hozirgi zamon oftalmologiya rivojlanishining yutuqlari bilan takomillashtirish” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/05.06.2020.Tib.102.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 11-yanvar kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.

Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektor@sammi.uz

Egamberganova Dilnoza Davronbekovnaning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi (pedagogika fanlari) ixtisosligi bo'yicha “Abulhasan Movardi asarlari vositasida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish” mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 14-yanvar kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.

Tel/faks: (61) 229-40-75, 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz

Sabirov Sardor Jumanazarovichning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha “Boshlang'ich sinf o'quvchilarida modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirish tizimi” mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 14-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.

Tel/faks: (61) 229-40-75, 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz



Ahmedova Matlubahon Muhammadjanovnaning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosligi bo'yicha “Bolalarda respirator allergozlaming klinik-patogenetik xususiyatlari va ularning immunoreabilitatsiasi” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Tib.50.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 20-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.

Tel/faks: (71) 207-08-30, 233-08-55;

e-mail: immunologiy@akademy.uz, web-sayt:www. immunologiya.uz

Lim Maksim Vyacheslavovichning 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo'yicha “Bolalarda bronxoobstruktiv sindromni tashxislash, davolash va oldini olishda tizimli yondashuv” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 23-yanvar kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani,

Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.

Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: mail@tashpmi.uz

Shodiyeva Xurshida Tuxtasinovnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha “Ko'p homilali homiladorlik bilan homiladorlarni olib borishning patogenetik asoslangan dasturini ishlab chiqish” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktorlik(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 16-yanvar kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140 Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.

Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: mail@tashpmi.uz

Eshonkulova Gulrux Yunusovnaning 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Filologik yo'nalishdagi talabalarga ingliz tili antroposentrik maqollarni o'rgatishning lingvodidaktik asoslari” mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 17-yanvar kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,

Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-“a” uy.

Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Rahimov Sanjar Muxammadovichning 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika) ixtisosligi bo'yicha “Mustaqil ta'lim topshiriqlarini avtomatik tekshirish axborot tizimini yaratish va foydalanish metodikasi” mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 15-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.

Tel/faks: (61) 229-40-75, 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz

Otaqulova Dilfuza Azamatovnaning 06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha “Och tusli bo'z tuproqlar sharoitida no'xatning ekish va o'g'it me'yorlarining don hosildorligiga ta'siri” mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/31.03.2023.Qx.159.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 18-yanvar kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuyganyor shaharchasi, Andijon ko'chasi, 36-uy.

Tel/faks: (74) 373-12-05;

e-mail: ddeiti19@mail.ru, dukkakiti@qsvx.uz, web-sayt: ddeiti.uz

Pirova Mehribon Kurbondurdiyevnaning 06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha “Tritikaledan yuqori va sifatli don hosili yetishtirishda turli ekish muddatlarida urug' ekish muddatlarini ishlab chiqish” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/31.03.2023.Qx.159.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 17-yanvar kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuyganyor shaharchasi, Andijon ko'chasi, 36-uy.

Tel/faks: (74) 373-12-05;

e-mail: ddeiti19@mail.ru, dukkakiti@qsvx.uz, web-sayt: ddeiti.uz

Mamurov Xurshidjon Abduvohidovichning 06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha “Soya navlari hosildorligiga ekish muddatlari va nitragin preparatining ta'siri (Farg'ona viloyati misolida)” mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/31.03.2023. Qx.159.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 18-yanvar kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuyganyor shaharchasi, Andijon ko'chasi, 36-uy.

Tel/faks: (74) 373-12-05;

e-mail: ddeiti19@mail.ru, dukkakiti@qsvx.uz, web-sayt: ddeiti.uz

Rahmonov Shuxratjon Husanboyevichning 06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha “Ekish muddatlari va ko'chat qalinligining no'xat o'simligini o'sishi, rivojlanishi hamda don hosildorligiga ta'sirini aniqlash” mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/31.03.2023.Qx.159.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 17-yanvar kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuyganyor shaharchasi, Andijon ko'chasi, 36-uy.

Tel/faks: (74) 373-12-05;

e-mail: ddeiti19@mail.ru, dukkakiti@qsvx.uz, web-sayt: ddeiti.uz

Jovliyeva Mavluda Baxtiyorovnaning 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo'yicha “Eksperimental bronxoektaz kasalligida nafas a'zolarining morfologik va immunogistokimyoviy xususiyatlari” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/29.02.2024.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 17-yanvar kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, (95) 911-00-50;

e-mail: info@buxmi.uz, buxmi@mail.ru

Usmanaliyev Sanjar Akbaraliyevichning 14.00.11 – Dermatologiya va venerologiya ixtisosligi bo'yicha “Koronavirus infeksiyasining surunkali dermatozlar klinik kechishi va davolash taktikasiga ta'siri” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/28.02.2023. Tib.158.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 16-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani,

Forobiy ko'chasi, 3-uy.

Tel/faks: (78) 147-02-06; e-mail: niidiv@mail.ru

Sharipova Inobat Sapabayevnaning 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo'yicha “Orolbo'yi hududidagi bolalarda nafas tizimi kasalliklarining klinik-funksional xususiyatlari” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 16-yanvar kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani,

Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.

Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Sarkisova Lyalya Valerevnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya hamda 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosliklari bo'yicha “Muddatiga yetmagan tug'ruqlarni tashxislash va olib borishning zamonaviy jihatlari” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.04.2022.Tib.93.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 14-yanvar kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Qayumova Go'zal Muxtorovnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha “Muddatdan oldin qog'onoq suvi ketganda homiladorlik va tug'ruqni olib borishda differensial yondashuv” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.04.2022.Tib.93.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 21-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru



Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi universitetning Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori, professor Jabbor Muhammadiyevga onasi

NORPOSHSHO ayaning

vafot etganligi munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.



Ehtirom

MUALLIMA TOVBOYEVA
SABOQLARI

Odamzod maktabda o'rgangan besh karra beshning javobini yuz yildan ortiq yashasa ham unutmaydi. Haqiqiy o'qituvchi, jonhalak muallim qiyofasi ham inson qalbida zimistonni yoritguvchi cheksiz nur singari abadiy muhrlanib qoladi.

Ishtixon tumanidagi eng olis qishloqlardan birida tug'ilgan muallima Umidaxon Tovboyeva bilan bo'lgan samimiy suhbatimiz xuddi shunday mulohazalar bilan boshlandi. U bilan o'rta maktablar faoliyati, ta'lim-tarbiya borasida nafaqat suhbatlashdik, balki bahslashdik, tortishdik.

Muallimaning fikrlari, o'zini tutishi va yon-atrofga nisbatan munosabatidan angladimki, u kasbiga bo'lgan botiniy mehr-muhabbat, insoniylik mezonlarini zukkolik bilan yuksaltira olgan. Ta'kidlashicha, har qanday bola ona qornidan o'zigagina xos qobiliyat bilan tug'iladi. Ushbu qobiliyatni ang'ay bilish, tobora o'rnatib borish esa muallimlarning asosiy vazifasi. Bolaning noyob iste'dodi, qiziqishlari ustoz tomonidan vaqtida his qilinmasa va me'yordagidek shaklga solinmasa, u asta-sekin tug'ma qobiliyatini yo'qotib boraveradi. Qobiliyat o'rmini ikkilanish, qo'rquv, yalqovlik egallay boshlaydi.

O'QUVCHI BILIMINI BAHOLASH

– Ustozlar o'quvchilar bilimini baholashda juda ham ehtiyot bo'lishlari lozim, – deydi muallima kamtarlik bilan. – O'quvchi xoh yaxshi o'qisin, xoh yomon, baribir bolalarcha fikrlaydi. Biroz tortinadi, begonasiraydi va o'zicha uyaladi ham. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi. O'qituvchi o'quvchining bilimi, qobiliyatiga beradigan har qanday baho shu lahzadan boshlab uning taqdiriga aylanadi va muhrlanadi. Bolajonlar murg'akligidan shunday sezgir va zukko bo'ladi. "2" yoki "5" baho qo'ygan, o'zlashtirishiga qarab maqtagan yoki no'rin dakki bergan ustozlarini qadam to'vushlaridan ajrata oladi. Muallimlarning fe'li, talabi, tabiatiga qarab uning saboqlari, talablariga moslashib boradi. Qo'rqsa, cho'chisa beg'ubor ko'ngliga xavotir, ikkilanish tushadi. O'zicha ayyorlikka o'tadi. Ba'zan bilganlarini ham aytolmay qoladi. Aksincha, ustoz uni, u ustozlarini seva olsa, olam – guliston. O'quvchi "2" dan qochib "3" bahoga intilsa, unga bemalol "5" qo'yavering! Siz va biz kabi ustozlar uchun eng muhimi bolada intilishning paydo bo'lganidir.

O'quvchilar bilimini baholab borish mezonini biroz eskirdi, chamamda. Yuqori sinf o'quvchilari o'qishi, fe'li, baholari hamda ota-onasining kimligiga qarab darhol alohida-alohida guruhlariga bo'linib olishini ustozlar bilishadi. Yaxshi o'qiydiganlar bir taraf, sust o'zlashtiruvchi ikkinchi tarafga og'ishadi. Tabiiyki, a'lochilar guruhi ko'pincha o'zlashtirishga qiynalayotganlarga past nazar bilan qaraydi. Natijada sinfda bo'linish, yakkalanish, odam ajratish illatlari paydo bo'ladi. Bu holat sinf o'quvchilarida bir-biriga nisbatan dushmanlik kayfiyatini shakllantirishi mumkin. Shuning uchun ta'lim tizimida joriy qilingan baholash mezonlarini qayta ko'rib chiqish, yangilash ham foydadan xoli bo'lmaydi. Menimcha, maktab jamoasi sinf o'quvchilari o'rtasida paydo bo'lgan bo'linishga qarab ish tutishlari lozim. A'lochilar bilan o'zlashtirishga qiynalayotganlarni rosmenasiga alohida-alohida sinflarga bo'lib yuborish yaxshi natija beradi deb o'ylayman. Shunda har bir guruhda intiluvchan o'quvchilar soni tobora ko'payib

boraveradi. Bola tengdoshlari, tenglari orasida o'zini bemalol va ancha erkin his qiladi.

BUGUNGI AVLOD ANOYI EMAS...

Umida Tovboyeva o'zi faoliyat olib borayotgan Ishtixon tumanidagi 93-maktabda o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari vazifasiga o'tgach, ishni o'quvchilar va o'qituvchilarning uyali aloqa vositalaridan foydalanishini tartibga solishdan boshladi. Hech narsani cheklamadi, aksincha, qanday foydalanishni o'rgatdi. Deyarli har kuni sinfma-sinf yurib zamonaviy telefonlarning foydasi haqida bilganlarini tushuntirdi.

– Bolalar ishonuvchan, taqiqlangan narsalarga nihoyatda qiziquvchan bo'ladi. Hamisha va har bir voqealardan so'ng "Nima uchun?" degan savolni ko'ndalang qo'yadi. Shundan kelib chiqqan holda qo'l telefonlari masalasida dastlab o'quvchilarimizga biroz erkinlik berdik. Dars jarayonida aloqa vositalari o'quvchilardan tortib olinmadi yoki derazalardan ulotirilmadi. Asta-sekinlik bilan o'quvchilarning tabiati, xohishlariga qarab samarali ish olib borildi. Maktabga telefonsiz kelgan o'quvchilarga alohida e'tibor va rag'bat joriy qildik. Kompyuterda ishlashni kengaytirdik. Uning telefondan ustun va foydali jihatlari o'quvchilar ongiga singdira oldik. Bu borada, avvalo, maktabimiz o'qituvchilari boshqalarga namuna bo'lishdi. Ota-onalar yig'ilishlarida ham telefon masalasi biror marta kun tartibidan tushib qolgani yo'q. Qarabsizki, tadbirlarimiz, jiddiy harakatlarimiz tezda samara berdi. O'quvchilarimiz maktabda aloqa vositalaridan ko'ra kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni afzal bildi. Shuni ishonch bilan ayta olamanki, bugun sinfxonaga birorta o'quvchi telefon olib kirmaydi. Qolaversa, har kuni ertalab dars boshlanishidan oldin maktabimizda qisqagina tarbiyaviy soat o'tkazishni yo'lga qo'yganmiz. Natijada yutuqlarimiz ancha ko'paydi. Eng muhimi, ota-onalarning maktabga, o'qituvchilarga nisbatan munosabati yaxshi tomonga o'zgardi. O'qituvchilarimizning hammasi yosh, intiluvchan va talabchan. Shunday jamoa tuza olganimiz, shunday bilim dargohida ishlayotganimdan g'ururlanaman, faxr-iftixorga to'lib yashayman, – deydi Umidaxon Tovboyeva.

ERTANGI KUN TASHVISHLARI

Bilamizki, ta'lim tizimida har bir kun g'animat. Har bir lahzaning beqiyos o'rni bor. Ayni pallada ko'pchilik zamondoshlarimiz "Maktablardagi muhit va sharoitni o'zgartirish lozim. O'qituvchilarning o'z ustida ishlamasligi, darslarga tayyorlanmasdan kelishi savodsiz avlodning shakllanishiga sabab bo'lmoqda", degan fikrni kuniga ming martalab takrorlashadi. Haqiqatan ham shundaymi? Rost bo'lsa, buning yechimi qanday? Ta'lim mutasaddilari tizimni barqarorlashtirish uchun qanday reja va tadbirlar ishlab chiqmoqda?

Umidaxon Tovboyeva aynan shu masalani quyidagicha izohlaydi: "Bu dunyoning barcha mamlakatlari ta'limida uchraydigan juda murakkab vaziyat. Chuqur-



roq o'ylab ko'radigan bo'lsak, muammoning yechimi ham o'zi bilan bog'liq. Darvoqe, bugungi yosh avlodning hammasi savodsiz, tajang, dangasa emas. Shuningdek, aksariyat o'qituvchilarimizning saviyasi, bilim va qobiliyatlari yuqori. Mana ko'rasiz, yana besh, o'n yildan keyin maktablarimizda faqat sohasini yaxshi biladigan, talabchan, o'z ustida tinimsiz ishlaydigan o'qituvchilar qoladi. Negaki, bugungi o'quvchilarning dunyoqarashi, intilishi, dars jarayonida turfa xil savollar yog'dirishi har qanday o'qituvchini esankiratib qo'yadi. Shunday ekan o'zini hurmat qilgan muallim borki, o'quvchilari oldida izza bo'lib qolishdan xavotirlanadi. Darslarga o'z vaqtida va katta tayyorgarlik bilan keladi.

IZDOSHLIK MAS'ULIYATI

384 nafar o'quvchi, qirqa yaqin ustozlarni birlashtirib turgan 93-maktab hamda zahmattalab muallimalik kasbi Umidaxon Tovboyevaga rahmatli otasi Shirinboy Tovboyevdan meros qolgan. Qurilishiga otasi bosh-qosh bo'lgan maktabga kelib, ota kasbini tanlab, qizi tushmagur, sira yanglishmadi. Qishloq bolalarining puxta bilim olishlarini yo'lga qo'yish uchun qo'lidan kelganini qildi. Ta'limga, maktabga borini tikdi. Samarali mehnatlari, yillar aro orttirilgan bilim va tajribalari evaziga o'n uch yil deganda maktab tizimining nufuzli – "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni, "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 30 yil" esdalik nishoni bilan taqdirlandi. Ko'rinishidan qilichdek keskir, ammo anchagina sipo, ko'ngli xotirjam bu muallimaning ko'zlariga tik qarashga, u bilan tengma-teng bahslashishga kamdan kam kishigina jur'at qila oladi. Uzoq davom etgan suhbatimiz davomida ichimda berayotgan savolim o'rinni, o'rin-sizmi, degan ishtiboh paydo bo'ldi. Tashvishlari, o'y-kechinmalari-yu orzu-havaslarini eshitib angladimki, uning kasbi menikidan ulug'roq, ishlari ko'p va muhimroq, zimmasidagi mas'uliyat yuki menikidan ancha zalvorli, zavqli ekan. Zahmati, mehnati, yutuqlariga, umrining har bir daqiqasiga chin dildan havas qildim. Muallimaning tozadil va samimiy, haqiqiy ona va ustoz maqomiga erisha olgani shuurimga behisob xurramlik, "Muallima bo'lsa, shunday bo'lsin-da!" degan nash'ali his-tuyg'u olib kirdi.

Normurod MUSOMOV,
jurnalist

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149 150. V-5875. Tiraji 3700

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

Tel/faks: (71) 212-01-50



"Ma'rifat"dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va mualifga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani yuklab olish uchun ushbu QR-kodni skanerlang:

(t) – tijorat belgisi.



Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:

100099 Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Web-site: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.